

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI  
QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT FAKULTETI**

«T A S D I Q L A Y M A N»  
Fakultet dekani, i.f.n.dots  
Kamolov X \_\_\_\_\_  
«\_\_» \_\_\_\_\_ 2016 y.

«T A S D I Q L A Y M A N»  
Kafedra mudiri, i.f.n.dots  
Maxmudov O \_\_\_\_\_  
«\_\_» \_\_\_\_\_ 2016 y.

**QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT  
KAFEDRASI**

**Fermer xo'jaliklarini boshqarish va tashkil etish ta'lif yo'naliishing  
bitiruvchisi**  
**Muxtorova Gulnozaning**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: Xo'jaobod tumani "Istiqlol" chorvachilik fermer xo'jaligida mahsulot  
yetishtirish imkoniyatlarini kengaytirish omillari**

Bitiruv malakaviy  
ishning rahbari, i.f.n, k/o'q.: Z.Israilov

Bitiruv malakaviy  
ishni bajaruvchi: G.Muxtorova

**Andijon – 2016 yil**

**O'ZBEKISTON KISHLOK VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**  
**ANDIJON KISHLOK XO'JALIGI INSTITUTI**  
**IQTISODIYOT VA BOSHKARUV FAKULTETI**  
**QISHLOQ XO'JALIK IQTISODIYOTI VA BOSHQARUV**

**KAFEDRASI**

“T A S D I Q L A Y M A N”

Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va boshqaruv  
kafedrasining mudiri

O.SHermatov \_\_\_\_\_

«7» sentyabr 2015 y.

**Fermer xo'jaligini boshqarish ta'lif yo'naliشining bitiruvchisi**

**Muxtorova Gulnozaga bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun**

# TOPSHIRIQ

- 1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi** *institut rektorining 2016 yil 18 sentyabrdagi № 240-ST (A) buyrug'i bilan tasdiqlangan.*
- 2. BMIning mavzusi:** Xo'jaobod tumani “Istiqlol” chorvachilik fermer xo'jaligida mahsulot yetishtirish imkoniyatlarini kengaytirish omillari.
- 3. Bitiruv malakaviy ishni tugatish vaqtি** «15 » may 2016 yil.
- 4. Bitiruv malakaviy ishning asosiy bo'limlari.** BMI kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar xamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.
- 5. Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun kerakli ma'lumotlar.** O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jaligida iqtisodiy isloxaatlarni o'tkazishga oid bo'lgan qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari, I.A.Karimov asarlari, mavzuga oid maxsus adabiyotlar, xamda Xo'jaobod tumani “Istiqlol” chorvachilik fermer xo'jaligining 2013-2015 yillar uchun biznes rejalar, yillik xisobotlari va mavzuga oid bo'lgan boshqa ma'lumotlari.
- 6. Bitiruv malakaviy ishda foydalaniladigan jadvallar.** Bitiruv malakaviy ishida mavzuning mohiyatini yoritishga yordam beradigan 9-12 ta jadvallarni tuzilishi ko'zda tutilgan bo'lib, ulardan 4 tasi bevosita himoya jarayonida foydalaniladi.

<i>Bitiruv malakaviy ishning asosiy savollari</i>	<i>BMIIni Raxbari</i>	<i>Bajarilish muddati</i>	<i>Imzo</i>
<i>Kirish</i>	<i>Katta o'qituvchi Z.Israilov</i>	<i>08.12.2015</i>	
<i>1-bob: Chorvachilik fermer xo'jaliklarida mahsulotlarini etishtirishni ko'paytirishning ilmiy nazariy asoslari</i>			
<i>1.1. Chorvachilik tarmog'ida mahsulot yetishtirishni ko'paytirishning aholi turmush farovonligini oshirishdagi ahamiyati</i>	<i>Katta o'qituvchi Z.Israilov</i>	<i>06.12.2015</i>	
<i>1.2. O'zbekistonda chorbachilikning resurs bazasi va mahsulot ishlab chiqarish va samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar, tahlil ko'rsatkichlari</i>	<i>Katta o'qituvchi Z.Israilov</i>	<i>25.01.2016</i>	
<i>2-bob: Xo'jaobod tumanidagi "Istiqlol" fermer xo'jaligining umumiy tavsifi va iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili</i>			
<i>2.1. "Istiqlol" fermer xo'jaligining umumiy tavsifi</i>	<i>Katta o'qituvchi Z.Israilov</i>	<i>05.02.2016</i>	
<i>2.2. "Istiqlol" fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili</i>	<i>Katta o'qituvchi Z.Israilov</i>	<i>15.03.2016</i>	
<i>3-bob: Xo'jaobod tumanidagi "Istiqlol" fermer xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlari</i>			
<i>3.1. Chorvachilik fermer xo'jaliklarida mahsulot etishtirish texnologiyasi</i>	<i>Katta o'qituvchi Z.Israilov</i>	<i>01.04.2016</i>	
<i>3.2. "Istiqlol" fermer xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish omillari</i>	<i>Katta o'qituvchi Z.Israilov</i>	<i>20.04.2016</i>	
<i>Xulosa va takliflar</i>	<i>Katta o'qituvchi Z.Israilov</i>	<i>04.05.2016</i>	
<i>Foydalanimagan adabiyotlar</i>	<i>Katta o'qituvchi Z.Israilov</i>	<i>10.05.2016</i>	

**Topshirik berilgan vaqt:**

**7 sentyabr 2015 yil.**

**BMI raxbari:**

**katta o'qituvchi Z.Israilov**

**Bitiruvchi:**

**G.Muxtorova**

## ***Mundarija***

<i>Reja</i>	<i>Betlar</i>
<i>Kirish</i>	
<i>1-bob: Chorvachilik fermer xo'jaliklarida mahsulotlarini etishtirishni ko'paytirishning ilmiy –nazariy asoslari</i>	
<i>1.1. Chorvachilik tarmog'ida mahsulot yetishtirishni ko'paytirishning aholi turmush farovonligini oshirishdagi ahamiyati</i>	
<i>1.2. O'zbekistonda chorbachilikning resurs bazasi va mahsulot ishlab chiqarish va samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar, tahlil ko'rsatkichlari</i>	
<i>2-bob: Xo'jaobod tumanidagi "Istiqlol" fermer xo'jaligining umumiy tavsifi va iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili</i>	
<i>2.1. "Istiqlol" fermer xo'jaligining umumiy tavsifi</i>	
<i>2.2. "Istiqlol" fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili</i>	
<i>3-bob: Xo'jaobod tumanidagi "Istiqlol" fermer xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlari</i>	
<i>3.1. Chorvachilik fermer xo'jaliklarida mahsulot etishtirish texnologiyasi.</i>	
<i>3.2. "Istiqlol" fermer xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish omillari</i>	
<i>Xulosa va takliflar</i>	
<i>Foydalanilgan adabiyotlar</i>	

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi bugubgu kunda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga ega rivojlanayotgan davlat bo'lib hisoblanadi. Oxirgi 10 yil mobaynida uzluksiz ravishda 8% iqtisodiy o'sish sur'arlariga erishilayotgani mamlaktimizning iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Bu yutuqlarning negizida bozor munosabatlarini rivojlantirishda ilmiy–texnika yutuqlaridan samarali foydalanish yotadi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni tezkorlik bilan rivojlantirishni va chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining mahsulot etishtirishini iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim omillardan hisoblanadi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti mehnat unumdarligini oshiradi va moddiy boyliklar to'plashda, shu jumladan qishloq xo'jalik mahsulotlarini, jumladan chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirishda va sifatini yaxshilashda asosiy omillardan hisoblanadi.

Ammo, shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, ilmiy-texnika yutuqlarini qishloq xo'jaligiga to'g'ri tadbiq qilishni, uning mohiyati va ahamiyatiga mukammal tushungan va yaxshi tayyorlangan kishilargina uni amalga oshira olishi mumkin. Chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda qo'llanilayotgan fan va texnika yutuqlari insonlarning ishlab chiqarish faoliyati xarakterini tubdan o'zgartiradi, mahsulot ishlab chiqarish jarayonlariga, mehnat sharoitiga va uning unumdarligiga ta'sir ko'rsatadi, ularning natijasida qishloq mehnatkashlarining moddiy manfaatlarini o'sishiga ijobjiy-foydali ta'sir ko'rsatadi.

Chorvachilikda ilmiy-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari quyidagicha belgilanadi:

1. Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligini rivojlanishni qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tizimining afzalliklarini hisobga olgan holda ilmiy asosda rejorashtirish.
2. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va yiriklashtirish sharoitida kompleks mexanizatsiya va avtomatizatsiyaning zamonaviy vositalarini amaliyatga joriy qilish.

3. Ishlab chiqarishning barcha jarayonlarini elektrlashtirish va potok texnologiya liniyalarida elektrodvigatel va uskunalardan foydalanish.

4. Kimyolashtirishda erishilgan yutuqlar asosida mineral o'g'itlardan yerlarning unumdarligini oshirish maqsadida unumli foydalanish hamda mollarni oqsil va mineral moddalar bilan oziqlantirishni yaxshilash va ularning mahsuldarligini oshirish.

5. Barcha hududlarda, ayniqsa O'zbekistonning sho'r tuproqli hududidagi viloyatlarda yerlarning melioratsiya holatini yaxshilash yo'li bilan ularni madaniy yaylovlar sifatida va serhosil ekinlar ekish uchun o'zlashtirish.

6. Zamonaviy chorvachilik komplekslarida, fermer xo'jaliklarining yirik fermalarida fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga samarali tadbiq qila biladigan, qobiliyatli, yuqori malakali mutaxassislar hamda o'rta malakali kadrlar tayyorlash.

Ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirishda hozirgi zamon texnika vositalaridan foydalanib, ishlab chiqarishni boshqarishni tashkil etish muhim rol o'ynaydi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti natijasida yirik korxonalarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, chorvachilikning sanoat texnologiyasi, yem-xashak yetishtirish va boshqa ishlab chiqarish jarayonlari yuqori darajada markazlashtiriladi.

Chorvachilik komplekslarini qurishda juda ko'p mollarni bir joyda saqlab boqish ko'zda tutiladi. Masalan, bitta kompleksda 108 ming bosh cho'chqa, 30 ming boshgacha qoramol bo'rdoqiga boqiladi. 600-800-1200 boshga mo'ljallangan sutchilik komplekslari va hokazo. Bunday komplekslar zavodlarda tayyorlangan yemlar bilan ta'minlanadi. Chorvachilikda ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirish uchun fermalardagi mavjud chorva binolarini rekonstruktsiya qilish, ularni yangi texnologiyaga moslashtirish zarur. Bunda yangi ish vositalarini qo'llanishi, mahsulot sifatini yaxshilash, texnologiya jarayonlarini takomillashtirish, mashinalar konstruktsiyasini yaxshilash hamda zamonaviy hisoblash texnikasi yordamida ishni tashkil etish va ishlab chiqarishni boshqarish ko'zda tutiladi.

Fermer xo'jaliklarida ilg'or texnologiyani joriy qilishda ishlab chiqarishning aniq sharoiti va qishloq xo'jaligini moddiy – texnika resurslari bilan ta'minlash

hisobga olinadi. Ko'pchilik xo'jaliklarda chorvachilikni hozirgi zamon texnologiyasi asosida boshqarishga moslashtirib, rekonstruktsiya qilish mumkin bo'lgan binolar bor. Mavjud fermalarni obodonlashtirish, ularni zamonaviy texnika bilan ta'minlash zarur. Shu bilan birga, yangi mexanizatsiya va avtomatizatsiya vositalari bilan jihozlangan ixtisoslashtirilgan chorvachilik komplekslarini qurish lozim.

Hozirgi vaqtida fermer xo'jaliklarini ancha yuksalganligi, sanoat, fan va texnika muvaffaqiyatlari rivojlanayotganligi tufayli chorvachilikni industrlashtirish mumkin va zarur bo'lib qoldi. Mamlakatimizda tuxum va go'sht yetishtiriladigan, mol va cho'chqalar boqib semirtiriladigan komplekslar qurish ko'zda tutilmoqda. Ishlab turgan komplekslarning ish yakunlari, ular ko'pgina zootexnika va iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha ayrim boshqa ixtisoslashmagan fermer xo'jaliklaridan ustun turishini ko'rsatdi.

O'zbekiston chorvachilik ilmiy tadqiqot instituti va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, mexanizatsiyalashtirilgan yirik sutchilik fermalarida sigirlarning mahsuldorligi mamlakatimiz bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarga nisbatan 35-45 % yuqori, mehnat sarfi 2,5 baravar kam, sutning tannarxi 18,5 % past, mahsulot birligi yetishtirish uchun ozuqa sarfi 12,5 % kamdir. Bu ko'rsatkichlar mol go'shti va cho'chqa go'shti yetishtiriladigan fermalar uchun ham tegishlidir[].

O'zbekistonda 2012 – 2015 yillarga mo'jallangan oziq – ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish dasturi amalga oshirildi. Ushbu dasturga ko'ra 16 xil turdag'i mahsulotni yetishtirishni ko'paytirish ko'zlanagn va bu maqsadga 74,8 mln AQSH dollari sarflandi. Bu mablag' mamlakatda 33ta oziq-ovqat ishlab chiqarish korxonasini qurish, ta'mirlash va modernizatsiya qilishga sarflandi. Bu dasturda quritilgan mevalarni ko'paytirish ham ko'zda tutilgan. Shuningdek, qolgan rejalar mamlakatda 44ta sutni qayta ishlovchi korxonalarini qurish, 90ta go'shtni qayta ishlovchi korxonalarini qurish rejalashtirilgan[] Bu esa o'z navbatida chorvachlikga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida qayta ishlovchi korxonalar uchun mahsulot yoki xom – ashyo ta'minoti muammosini keltirib

chiqarmoqda. Buning uchun fermer xo'jaliklarida mahsulot yetishtirishni ko'paytirish muammolarini o'rganish va ularga yechim toppish zarur.

Respublika iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining ahamiyati juda katta. Mamlakat YAIM 17% qishloq xo'jaligida yaratilmoqda, mehnatga yaroqli aholining 28% ish bilan ta'minlanmoqda. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarining 95-97 foizi yaratilmoqda. Endilikda qayta ishslash sanoatining yuksalishi, aholi sonining o'sishi, tashqi bozor talabini o'zgarishi, ekologik talablarga javob beradigan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish va rivojlantirish zarur. Shuning uchun ham tarmoqni rivojlantirish va samaradorligini oshirish zamon talabidir.

Chorvachilikda amalga oshirilayotgan islohotlar - chorva bosh sonini ko'paytirish, zotini yaxshilash va mahsuldorligini oshirish, mamlakatimizning iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholini moddiy farovon yashash imkonini taminlab beradi.

Qishloq xo'jaligida chorvachilik tormog'ini rivojlantirish, chorva bosh sonini ko'paytirish, yem-xashak ekiladigan maydonlarni kengaytirish va ularni ixtisoslanishidan kelib chiqqan xolda maqsadli ekin ekish ishlari amalga oshirildi.

Chorvachilik tarmoq faoliyatida turli qishloq xo'jalik texnika va texnalogiyalaridan, yoqilg'i, ozuqa va boshqa vositalardan foydalanib kelinmoqda. Bu o'z navbatida, mahsulot yetishtirish xajmini yil sayin ko'paytirish imkonini bermoqda. Chorvachilikda yetishtirilayotgan ist'emol mahsulotlari jon boshiga belgilangan tibbiyot me'yorlariga nisbatan ancha kam. Demak, kelajakda chorvachilikni yanada rivojlantirish uchun tarmoqni modernizatsiyalashtirish, raqobatbardoshligini oshirish va investitsiyalarni kiritish lozim. Bu borada muayan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, chorvachilik tarmog'ini bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlarni shakllantiradigan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohatlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlash imkoniyatini beradigan tadbirlar ishlab chiqib, ischil amalga oshirish zarur. Bu jarayon yil sayin kuchaytirilib boriladi. Natijada, kelajakda chorvachilik yuqori sur'atlarda rivojlanishi ta'minlanadi, respublika iqtisodiyoti yuksaladi.

Chorvachilikga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini yanada rivojlantirish, faoliyatini takomillashtirish, samaradorligini oshirish, yer-suv va chorva resurslaridan unumli foydalanish maqsadida, Prezidentimiz I.Karimovning 2006 yil 23 martdagи “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi hamda 2008 yil 21 apreldagi «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlarining qabul qilinishi chorva mollar bosh sonini ko'paytrish, shuningdek qishloq aholisi bandligini oshirish, oilalarning daromadini ko'paytirishda muhim o'rinn tutadi.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda amalga oshirib kelinayotgan tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, xo'jalikning iqtisodiy va ishlab chiqarish quvvatiga bog'liqdir. Xo'jalikni ishlab chiqarish quvvati bevosita zaruriy asosiy vositalar turi va miqdoriga, aylanma fondlar bilan ta'minlanish darajasiga va mehnat resurslar malakasiga bog'liqdir. Xo'jalikning ishlab chiqarish quvvati (chorva bosh soni va nasli, texnika, texnalogiya va pul mablag'lari) qanchalik yaxshi bo'lsa, xo'jalik shunchalik iqtisodiy jihatdan mustahkam, moliyaviy barqaror barqaror va bozor iqtisodiyoti talablariga chidaydigan raqobatbardosh bo'ladi. Xo'jalikni ishlab chiqarish quvvati ichida ishlab chiqarish vositalari yoki asosiy vositalar yuqori salmoqni tashkil etishi lozim.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun xo'jaliklarni moddiy texnika ta'minotini mustahkamlash, yuqori hosil beradigan navlarni yaratish, mahsulot yetishtirish texnologiyasini zamon talablariga moslash hamda urug'chilik va selektsiya ishlarini tashkil etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari kuchaytirildi.

Aholini chorvachilik mahsulotlariga bo'lган talabini o'sishini inobatga olgan holda men Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol” fermer xo'jaligida qoramolchilik tarmogida mahsulot yetishtirish hajmiga ta'sir etuvchi omillar, iqtisodiy

samaradorlikga ta'sir etuvchi omillarni bitiruv malakaviy ishini tadqiqiot mavzusi sifatida tanlab oldim.

Bitiruv malakaviy ishi – bitiruv malakaviy ishini yozish bo'yicha berilgan tavsiyalarga va xo'jalik ma'lumotlariga ta'yangan holda yozilgan. Bitiruv malakaviy ishida fermer xo'jaligida chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish dolzarbli, erishilgan natijalar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi – fermer xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish manbalari va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan:

- chorvachilik tarmog'ida mahsulot yetishtirishni ko'paytirishning aholi turmush farovonligini oshirishdagi ahamiyatini yoritib berish;
- mahsulot yetishtirishni ko'paytirishni iqtisodiy samaradorligi va uni tahlil qilish ko'rastkichlarini tavsiflab berish;
- “Istiqlol” fermer xo'jligining umumiyoq tafsifini keltirish;
- “Istiqlol” fermer xo'jligining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish va uning yutuq va kamchiliklarini ko'rsatib berish;
- “Istiqlol” fermer ho'jaligida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni tushuntirish.

Bitiruv malakaviy ishimni ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- fermer xo'jaligida resurs bilan ta'minlanish darajasining mahsulot ishlab chiqarishga ta'sirini o'rganish asosida xo'jalikni iqtisodiy samaradorligini yaxshilash yo'llari nazariy jihatdan asoslab berildi va unga ta'sir etuvchi omillar izohlandi;
- fermer xo'jaliklari tomonidan mahsulot yetishtirishni qo'paytirishni bozor talabiga moslashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif ishlab chiqildi;
- fermer xo'jaliklari tomonidan mahsulot yetishtirishga ta'sir etuvchi omillarning xo'jalikni iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri ko'rsatib o'tildi va tavsiyalar ishlab chiqildi;

- chorvachilik fermer xo'jaliklarida resurs ta'minotini yaxshilash madsadida yer maydonlarini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanishga ta'siri bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishning natijalarini ilmiy va amaliy ahamiyati:

- mavzu bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar, xo'jalikda mahsulot yetishtirishni ko'paytirishda chorva resurs ta'monotini yaxshilash, ozuqa yetishtirish uchun ekin maydonlaridan samarali foydalanish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha takliflar xo'jalik faoliyatini rejalashtirish va dasturlashtirishda amaliy ko'rsatma sifatida foydalanishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3ta bobdan iborat va asosiy qism hamda mavzu yuzasidan yozilgan taklif va xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishni kirish qismida tanlangan mavzuni dolzarbliji, maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi va olingan natijalarni nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Ishning umumiy hajmi 73 varaq bolib, 11ta jadval taylorlangan.

Birinchi bobda iqtisodiy isloxatlarni chuqurlashtirish sharoitida mahsulot yetishtirishni ilmiy-nazariy asoslari bayon qilingan, ikkinchi bobda Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermer xo'jaligining umumiy tafsifi va mahsulot yetishtirishning iqtisodiy samaradorlik darjasini taxlil qilingan. Uchinchi bobda Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasida mahsulot yetishtirishni ko'paytirish omillari izohlangan va yo'llari asoslab berilgan.

Bitiruv malakaviy ishning xulosa qismida mavzu yuzasidan xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

## **1–Bob: Chorvachilik fermer xo’jaliklarida mahsulotlarini etishtirishni ko’paytirishning ilmiy – nazariy asoslari**

### **1.1. Chorvachilik tarmog’ida mahsulot yetishtirishni ko’paytirishning aholi turmush farovonligini oshirishdagi ahamiyati**

O’zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo’jaligi salmoqli o’rin egallaydi. Mamlakatning yer fondi, mehnat resurslari, texnika va texnologik uskunalar hamda sug’orish tizimi va boshqa milliy boyliklarning katta qismi qishloq xo’jaligi ixtiyoriga berilgan. Shularni hisobga olib, respublika hukumati qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari faoliyatini bozor munosabatlariga moslashuvini tezlashtirish, ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlarni izchil amalga oshirmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko’ra, 2014 yilda qishloq xo’jaligi tarmoqlarida 3,5 mln.dan ortiq kishi ish bilan band bo’lgan. Yoki 2000 yilga nisbatan qishloq xo’jaligida ishlovchilar soni 14,5 foizga ko’paygan. Qishloq xo’jaligining mamlakat YAIMdagi ulushi 2014 yilda 17,2 foizga teng bo’lgan. Bu 2000 yilga nisbatan solishtirganda 12,9 foizga kamdir. Bunday holat YAIM tarkibida iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalarining ulushi oshishi bilan yuz bergen bo’lsada, amalda esa joriy narxlarda yalpi qishloq xo’jalik mahsulotlari ishlab chiqarish 2014 yilda 2000 yilga nisbatan 26 martaga oshgan. Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish esa shu davrda 31 martaga ko’paygan. Bunday ijobjiy o’zgarishlar aholini zaruriy oziq-ovqatlar bilan ta’minlashni yaxshilash, eksportga mahsulot chiqarishni ko’paytirish, qayta ishlovchi sanoat korxonalarini xom ashyoga bo’lgan talablarini qondirish bilan birga, qishloq aholisi daromadlarini ko’paytirish imkoniyatlarini ham yaratdi. Buni qishloq xo’jaligida band bo’lgan bitta ishchiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining 2014 yilda 2000 yilga nisbatan **17,3** martaga oshganligi ham tasdiqlaydi. Yoki shu davrda bitta band ishchiga 2000 yilda 449 ming so’mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo’lsa, 2014 yilda bu raqam **8433** ming so’mga teng bo’lgan. Shu bilan bir vaqtida jahon

iqtisodiyotida yuz berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar va siyosiy keskinliklarga qaramasdan, qishloq xo'jaligida yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda. (1 jadval).

### 1-jadval

#### **O'zbekiston qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasi, mld. so'm**

Ko'rsatkichlar	Yillar				2014 yilda 2000 yilga nisbatan o'sish, foizda, marta
	2000	2010	2012	2014	
Mamlakat YAIMdagi ulushi, foiz	30,1	18,0	17,5	17,2	- 12,9 daraja
Band bo'lganlar, ming kishi	3090,2	3120,9	3323,2	3537,8	+ 14,5 %
YAlpi ishlab chiqarish mahsuloti (amaldagi narxlari)	1387,2	16774,7	24370,3	36957,0	26 baravar
sh.j. dehqonchilik chorvachilik	696,8 690,4	10023,0 6751,7	14155,3 10215,0	21804,6 14782,8	31 baravar 21 baravar
YAlpi mahsulotning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan foizda)	103,1	106,9	107,0	106,9	×
Bitta band ishchiga ishlab chiqarish, ming so'm	449,0	5375,0	7333,4	8433,2.	18,8 baravar

**Manba:** O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Ma'lumki, O'zbekiston qishloq xo'jaligida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar natijasida xususiy mulkchilik ustuvor bo'lgan ko'p ukladli agrar ishlab chiqarish tizimi shakllandi. Unda fermer va dehqon xo'jaliklari asosiy o'rinni tutadi.

Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 34, dehqon xo'jaliklari esa qariyb 64 foizni ishlab chiqaradi. Fermer xo'jaliklari mamlakatda ishlab chiqarilayotgan donning qariyb 81 foizini, paxta xom-ashyosining 99,5 foizini yetishtiradi. Shu bilan bir vaqtda fermerlar katta hajmda kartoshka (35,4 foiz), sabzavot (35,4 foiz), poliz (50,5 foiz), meva (47,6 foiz), uzum (55,8 foiz) va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi. Chorva mahsulotlarining asosiy qismi dehqon xo'jaliklari ulushiga to'g'ri keladi.

2015 yilda erishilgan natijalar esa yanada sezilarli bo'ldi. Jumladan, yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarish hajmi o'sishi o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslama baholarda 106,6 foizni tashkil etdi. Joriy yilning 1 oktyabr holatiga respublika bo'yicha jami 76 ming 804ta fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsayotgan bo'lib, ularga 5 mln 847 ming 170,6 hektar yer maydonlari ijaraga berilgan. Bunda, bir fermer xo'jaligiga to'g'ri kelgan o'rtacha yer maydoni 76,1 hektarni tashkil etmoqda.

Shuningdek, hisobot davrida 1947 ta fermer xo'jaligida qoramolchilik, 917ta fermer xo'jaligida parrandachilik, 721ta fermer xo'jaligida baliqchilik va 785ta fermer xo'jaligida asalarichilik yo'nalishlaridagi, 48ta fermer xo'jaligida go'shtni qayta ishslash, 89ta fermer xo'jaligida sutni qayta ishslash va 105ta fermer xo'jaligida meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishslash, 19ta fermer xo'jaligida qandolatchilik va 58 ta fermer xo'jaligida un va un mahsulotlarini qayta ishslash, 20 ta fermer xo'jaligida qurilish materiallari ishlab chiqarish, 82ta fermer xo'jaligida muzlatgichli omborxonalar tashkil etish yo'nalishidagi loyihibar amalga oshirildi.

Servis xizmati ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha 3733ta fermer xo'jaligida 5197ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, ushbu maqsadlarga 23,9 mlrd so'm bank kreditlari va 119,0 mlrd so'm fermer xo'jaliklarining o'z mablag'lari jaib etildi. Respublikamizda fermerlik harakatini yanada rivojlantirish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyatini tashkil etishni jadallashtirish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari bosh sonini ko'paytirishni rag'batlantirish, servis xizmatlari tarmog'ini tashkil etishga doir chora-tadbirlar dasturining amalga oshirilishi natijasida chorvachilik sohasida ijobjiy natijalarga erishilmoqda.

Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida hisobot davrida barcha toifadagi xo'jaliklarda qoramollar bosh soni o'sishi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,4, shundan sigirlar bosh soni 102,3, qo'y va echkilar bosh soni 105,6, parrandalar bosh soni 109,2 foizni tashkil etmoqda. Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklaridagi chorva mollariga mavjud 2615 ta zooveterinariya punktlari orqali turli zooveterinariya xizmatlari ko'rsatildi hamda chorva mollari naslini

yaxshilash va mahsuldorligini oshirish maqsadida 1814 ming bosh sigir va urg'ochi tanalar sun'iy urug'lantirildi. Respublikamizda hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan 423 ta qoramolchilik naslchilik xo'jaliklari tomonidan 7ming 456 bosh naslli mollar tayyorlanib “kim oshdi” auktsionlarida sotish tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan tarmoqlarni rivojlantirish dasturlariga asosan amalga oshirilgan tizimli ishlar natijasida:

- qoramolchilik yo'nalishi bo'yicha yangitdan 2750 ta loyiha tashkil etildi va ularda 80ming 464bosh qoramollar parvarish qilinmoqda. Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun 502 mlrd 373 mln so'm mablag'lar yo'naltirilgan bo'lsa, uning 262 mlrd 458 mln so'mini tijorat banklarining kredit mablag'lari tashkil etadi. Ushbu loyihalar hisobiga qo'shimcha 9389 ta yangi ishchi o'rirlari yaratildi;
- parrandachilik yo'nalishida 943ta parrandachilik xo'jaligi tashkil etilib, ularda 14mln 799 ming bosh parrandalarni parvarish qilish yo'lga qo'yildi. Mavjud 320ta inkubatorlarda ochirilgan 3,2 mln boshga yaqin naslli jo'jalar parrandachilik xo'jaliklari va aholiga yetkazib berildi. Bu yo'nalishdagi loyihalarni amalga oshirishga jami 237 mlrd 695 mln so'm, shu jumladan, 100 mlrd 206 mln so'mlik bank kreditlari sarflandi va 4509 ta yangi ishchi o'rirlari yaratildi;
- aholi xonadonlariga parranda tarqatish bo'yicha 69 ming 564 ta yangi loyiha tashkil etildi va ularda 5mln 384ming bosh parrandani parvarish qilish yo'lga qo'yildi. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun jami 20mlrd 40mln so'm mablag'lar o'zlashtirilgan bo'lsa, uning 3mlrd 59mln so'mi bank krediti mablag'lari hisobiga to'g'ri keladi;
- baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha 898ta yangi loyiha tashkil etildi. Natijada 1999 getkar tabiiy va 2528 getkar sun'iy ko'llarda baliqchilik xo'jaliklari tashkil etildi. Bu loyihalarni amalga oshirish uchun 62mlrd 234mln so'm sarflangan bo'lsa, tijorat banklaridan 19mlrd 448 mln so'm kredit mablag'lari ajratildi. Tashkil etilgan ushbu loyihalar hisobidan 3070 ta yangi ishchi o'rirlari yaratildi;

– asalarichilik yo’nalishida 988ta loyihani amalga oshirish hisobidan 49ming 47 ta asalari oilalari boqish tashkil etildi va ushbu loyihalarga jalg qilingan 34mlrd 538mln so’m mablag’ning 9mlrd 694 mln so’mini tijorat banklari kreditlari tashkil etadi. Yangi loyihalar hisobidan 1870 ta ish o’rinlari yaratildi;

– qo’ychilik yo’nalishi bo’yicha 377 ta loyiha tashkil etildi. Bu loyihalarga 47 mlrd 377mln so’m ajratilgan bo’lib, shuning 12mlrd 124mln so’mi tijorat banklarining kredit mablag’lari hisoblanadi. Tashkil etilgan yangi loyihalar asosida 1011ta yangi ishchi o’rinlari yaratildi;

– echkichilik bo’yicha 136 ta loyiha tashkil etildi. Bu loyihalarga 13mlrd 643 mln so’m mablag’ sarflangan, jumladan, tijorat banklaridan 4mlrd 869mln. so’m kredit mablag’lari ajratilgan. Tashkil etilgan yangi loyihalarda 415ta yangi ishchi o’rinlari yaratildi.]

Amalga oshirilgan ishlar natijasida aholi dasturxoniga go’sht, sut, tuxum va boshqa turdag'i chorvachilik mahsulotlari yetkazib berish hajmlari oshishiga erishildi.

Shunday qilib, O’zbekiston davlat mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab qishloq xo’jaligida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida quyidagilarga erishildi:

- qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishining tarkibiy tuzilishi mamlakat aholisi, sanoat tarmoqlari hamda xalqaro bozor talablariga mos ravishda qayta o’zgartirildi, tubdan yangi agrar munosabatlар shakllantirildi;

- qishloqda mulkdorlar sinfining o’rta qatlami – tadbirkor va ishbilarmon fermerlar shakllandı, fermer xo’jaliklari mamlakat qishloq xo’jaligining asosiy bo’g’iniga aylandi. Ular strategik ahamiyatga molik bo’lgan g’alla, paxta va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo’lgan resurslarga ega bo’ldi. Shu bilan qishloq xo’jaligida barqaror rivojlanishga erishish asosan ta’minlanadi;

- davlat fermerlarni qo’llab-quvvatlash, ular rivojini rag’batlantirishning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini joriy etdi. Paxta, g’alla va boshqa qishloq xo’jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish barqarorlashdi, bu qishloq aholisining daromadlari ko’payishi, turmush farovonligini oshishiga olib keldi;

- fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarilayotgan dehqonchilik hamda chorvachilik mahsulotlari samaradorligini oshishi, fermerlarga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma tashkilotlarining ko'payishi, istiqbolda ishlab chiqarish kooperatsiyasiga asoslangan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga keng yo'l ochib berdi. Bu moliyaviy-iqtisodiy jihatdan baquvvat, barqaror rivojlanish manbasiga ega bo'lgan fermer xo'jaliklarini shakllanishini kafolatlamoqda.

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar natijasi qishloq xo'jaligi sohasija mahsulot yetishtirish hajmi yildan -yilga ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Biroq, Andijon viloyatida aholi turmush farovonligi ko'rsatkichlari respublikamizning boshqa hududlari bilan solishtirilsa, katta farq mavjudligi va viloyatimizni iqjtimoiy - iqtisodiy taraqqiyot borasida boshqa viloyatlardan orqada qolib ketayotganligi ko'zga tashlanadi. Buni quyidagi 2014 yilda aholi jon boshiga YAMM ishlab chiqarish indeksi haqida ma'lumotlar asosida ko'rishimiz mumkin. (2 jadval).

## 2-jadval

### O'zbekiston Respublikasi hududlarida aholi jon boshiga YAMM ishlab chiqarish indeksi

Nº	Hududlarning nomi	Aholi jon boshiga YAMM ishlab chiqarish indeksi	Guruha egallagan o'rni
1	Toshkent shahri	1.917	1 guruh
2	Navoiy viloyati	1.773	
3	Toshkent viloyati	1.096	
4	Buxoro	0.970	2 guruh
5	Qashqadaryo	0.762	
6	Sirdaryo	0.742	
7	Andijon	0.692	
8	Farg'onha	0.604	
9	Xorazm	0.592	
10	Jizzax	0.565	
11	Samarqand	0.561	
12	Surxondaryo	0.553	
13	Namangan	0.510	3 guruh
14	Qoraqalpog'iston Respublikasi	0.441	

**Manba:** O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, Andijon viloyatida aholi jon boshiga YAMM 0.692 indeksiga ega bo'lib, bu respublika miqyosida umumiy hisobda 7

o’rin, guruhlar kesimida esa 2 guruhning 4 o’rni hisoblanadi. Garchi, viloyat suv resursi bilan boshqa viloyatlarga nisbatan juda yaxshi ta’minlangan bo’lsada, aholi jon boshiga to’g’ri keladigan mahsulot hajmi nisbatan pastroq.

Ko’plab keltirilgan taxliliy ma’lumotlarda chorvachilik tarmog’i mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko’paytirish uchun bir nechta muammolar guruhi mavjud bo’lib, ularni chuqur o’rganish asosida hal etish talab etiladi. Ularning ichida chorvachilik tarmog’ini resurs bazasini mustahkamlash va yanada kengaytirish, moliyaviy mablag’lar hajmini oshirish, asosiy fondlarni yangilash va mehnatni fond bilan qurollanish darajasi kabi dolzarb muammolar ko’zda tutiladi.

## **1.2. O’zbekistonda chorbachilikning resurs bazasi va mahsulot ishlab chiqarish va samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar, tahlil ko’rsatkichlari**

Chorvachilik O’zbekiston qishloq xo’jaligining tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo’lib, mamlakatda ishlab chiqarilgan qishloq xo’jalik mahsulotlarining 41% uning ulushiga to’g’ri keladi. Tarmoqning asosiy xususiyati shundaki, chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismi unchalik katta bo’lmagan dehqon xo’jaliklarida ishlab chiqarilmoqda. Ushbu xo’jaliklar ixtiyorida bo’lgan yer maydonining o’rtacha hajmi 0,15 gettarni tashkil etadi.

Dehqon xo’jaliklarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Negaki, bu ko’plab oilalar uchun daromad olish va iste’molning muhim manbai hisoblanadi. Biroq, aksariyat chorvachilik xo’jaliklarining maydaligi zamonaviy texnologiyalarni qo’llash va “miqyos samarasi” orqali ijobiy samara olish imkoniyatining cheklanishiga sabab bo’lmoqda. Bu esa tarmoq samaradorligi ko’rsatkichlarining pastligida namoyon bo’layotir. Mamlakatda chorvachilikni rivojlantirishning boshqa muammolari ham bor. Ushbu muammolarning eng jiddiyaridan biri ozuqa yetishmasligi bo’lib, bu ozuqa ekinlari ekiladigan maydonlarning haddan ziyod qisqarib ketgani bilan bog’liqidir (1991 yildan buyon 2007 yilgacha qoramol soni 45 foizga ko’payganiga qaramay, ozuqa ekin maydonlari 70 foizga qisqargan). Qishloq ishlab chiqaruvchilari uchun xizmat ko’rsatish infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmagani ham dolzarb muammo hisoblanadi.

O’zbekiston hukumati chorvachilikni barqaror rivojlantirish muhimligi va mavjud muammolar dolzarbligini tushungan holda, tarmoqni isloh qilish borasida qator choralar ko’rmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martda qabul qilingan “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo’jaliklarida chorva mollarni ko’paytirishni rag’batlantirish chora tadbirlari to’g’risida”gi 308-qarori ushbu jarayonda muhim dasturi amal bo’lmoqda.


O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 apreldagi “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo’jaliklarida chorva mollarini ko’paytirishni

rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 842-qaroriga asosan yaqin besh yilda mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirish strategiyasi hamda amalga oshirilayotgan ishlar va sohada yaratilayotgan imkoniyatlar ko'lami yanada oshdi.

Agrar sektorda ishlab chiqarishning uchta asosiy omili – tabiiy resurslar (yer va suv resurslari), kapital (asosiy fondlar) va mehnatdan (qishloq xo'jalik korxonalarini xodimlari) foydalanilmoqda. Bu borada eng muhim resurs, so'zsiz – yerdir. Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda, qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari 17 million gektardan ortiq yerdan foydalanmoqda. Bu yerlar asosan yaylovlar va shudgor qilinadigan yerlar bo'yicha taqsimlangan (1-rasm).[]

### **1 – rasm**

**Qishloq xo'jalik yerlarining taqsimlanishi**




Ushbu rasmda 1991 yildan boshlab 2007 yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida, ayrim toifadagi qishloq xo'jalik yerlari qanday o'zgargani qayd etilgan. Xususan, qishloq xo'jalik ekinlari toifasiga ajratilgan yerlar umumiyligi maydoni 33 foizga kamaygan. Buning asosiy sababi – yaylovlar maydonining unumdarligi past va tanazzulga uchragan qismini davlat zaxirasi va o'rmon fondiga o'tkazilishi

hisobiga qisqarishidir (taxminan 40 foizga). Yaylovlar sifati chorva mollari, birinchi navbatda, shaxsiy qaramoqdagi mollar sonining ko'payishi, ularning tizimsiz boqilishi, shuningdek, yaylovlardan tizimli foydalanishga rioya qilmaslik sababli pasaydi. Bu vaqt mobaynida shudgor qilinadigan yerlar hajmi unchalik o'zgargani yo'q. Shudgor qilinadigan yerlar mamlakatning eng qimmatli yer resursidir. 2007 yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda qishloq xo'jalik ekinlari ekiladigan umumiylar maydon 3,5 milliondan ortiq gektarni tashkil qilgan. Bu yerlarni ekinlar respublika bo'yicha ekin maydonlari tuzilmasi 2007 yil, foizda g'alla 43.2%, paxta 40.8% kartoshka 1.6%, sabzavot 4.5%, poliz ekinlari 1.1%, ozuqa ekinlari 8.2%. Ushbu jadvalda ziroatchilikda ikkita ekin – g'alla va paxta ustuvorligi ko'rilib turibdi.

2007 yilda g'alla ekilgan yer maydoni 1,5 milliondan ortiq gektar, jumladan, bug'doy ekilgan maydon qariyb 1,4 million gektarni tashkil etdi. 1,45 million gektarga paxta, kamida 300ming gektarga ozuqa ekinlari ekildi. (2 – rasm).[]

## **2 – rasm**

### **O'zbekistonda 1999-2007 yillar oralig'ida ekin yerlarini taqsimlanishidagi o'zgarishlar (1991 yil 100%)**



Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, mustaqillik yillarida g'alla (1,5 baravardan ortiq), kartoshka va sabzavot ekiladigan maydonlar ko'paygan. Bunda paxta, poliz va ozuqa ekinlari maydoni qisqargan. Ko'proq ozuqa ekinlari ekiladigan maydonlar kamaytirilgan (70 foizdan ziyod).

O'zbekiston qishloq xo'jaligining sun'iy sug'orishga bog'liqligi uning o'ziga xos xususiyatlaridandir. XX asrning ikkinchi yarmida aholining tez ko'payishi sug'oriladigan hududlarni uzliksiz kengaytirishni talab qildi. Sug'oriladigan yerlar umumiy maydoni 1953 yildagi 2,2 million gektardan 1985 yilga kelib qariyb 4 million gektargacha ko'paydi, o'sish sur'ati taxminan yiliga 2 foizni tashkil etdi. Sovet davrida yangi sug'oriladigan yerlarning joriy etilishi bir nafar qishloq xo'jalik xodimi uchun sug'oriladigan maydonni 1950 yildagi 1,5 gektardan 1980 yil oxirida 2,2 gektarga oshirish imkonini berdi. Ushbu jarayon 1985 yildan ayniqsa 1990 yildan keyin ancha susaydi. Bu esa nafaqat byudjet mablag'lari cheklanganining oqibati, balki sug'oriladigan yerlarni kengaytirish uchun ob'ektiv imkoniyatlarni kamaytirdi. Negaki, o'zlashtirilgan yangi yerlarning unumдорligi past edi.

1972-2007 yillarda sug'oriladigan yerlar sifatining dinamikasi bugungi kunda ziroatchilik mahsulotlari va chorvachilik mahsulotlarining katta qismi (dasht joylardagi qorako'lchilikdan tashqari) asosan sug'oriladigan yerlarda yetishtirilayotganini ko'rsatmoqda. Shudgor qilinadigan maydonlarning 20 foizga yaqinini lalmikor yerlar tashkil qiladi. Ziroatchilikning asosiy ekini bo'lgan paxta faqat sug'orish yordamida yetishtirilmoqda. Bundan tashqari, don ekinlarining ham asosiy qismi sug'oriladigan yerlarda yetishtirilayotir. O'zbekistonda suv har doim strategik milliy resurs sifatida qadrlanib kelgan. Irrigatsiya tizimi davlat tomonidan qurilib, boshqariladi. Davlat, shuningdek, suvni taqsimlash va irrigatsiya tizimlarini bir maromda saqlash uchun mas'uldir. Yerning unumдорligi qishloq xo'jaligi uchun resurs sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, bu boradagi ahvol unchalik yaxshi emas. 90-yillargacha respublikaning paxta ekiladigan tumanlarida paxta va beda almashlab ekildi, ozuqa ekinlari ekin maydonlarining 26


foizidan ortig'ini egalladi, irrigatsiya-drenaj tarmoqlarini tozalash, sizot suv darajasini va yerning sho'rланishini kamaytirish bo'yicha melioratsiya tadbirlari o'z vaqtida o'tkazildi. Sug'oriladigan yerlarni sifatli baholash ko'rsatkichlari ham bundan dalolat beradi. Respublika bo'yicha tuproq boniteti balli uzoq vaqt mobaynida yetarli darajada yaxshi saqlanib keldi. 90-yillarda respublikaning g'alla mustaqilligiga erishish maqsadida sug'oriladigan yerlarda kuzgi g'alla ekiladigan maydonlarning kengaytirilishi natijasida beda va paxta hamda bedani almashlab ekish kamaytirildi. Ayni paytda paxta va g'alla yetishtiriladigan xo'jaliklarda ushbu ekinlarning tovar mahsuloti ishlab chiqarilmoqda, uchinchi ekinlarni yetishtirish sezilarli darajada kamaydi. Qishloq xo'jalik korxonalari ahvolining moliyaviy jihatdan qiyinlashgani yerlar sifatini qayta tiklash jarayoni O'zbekistonda chorvachilikni murakkablashtirdi. So'nggi yillarda kollektorlar tarmog'ini tozalash ishlari amalga oshirilmagani bois sizot suvlar sathi ancha ko'tarildi, uning meliorativ holati yomonlashdi. Talab darajasida mablag' va melioratsiya texnikasi bilan ta'minlanmaganlik oqibatida meliorativ ishlar o'z vaqtida va yetarli hajmda amalga oshirilmadi. Ikkita asosiy ekinni (paxta va kuzgidon) yetishtirish, ekinlarni almashlab ekmaslik, melioratsiya tadbirlarini o'z vaqtida va yetarli darajada amalga oshirmaslik, shuningdek, Orol dengizining qurishi yerlar unumdorligi hamda ularning tuz rejimiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ayni paytda sug'oriladigan yerlarning yarmidan ko'pi turli darajada sho'rangan. Tuproq boniteti bali ham pasaygan va bu ko'rsatkich respublika bo'yicha 55 foizdan ham kamdir. 1990 yildan buyon yuqori sifatli sug'oriladigan yer maydoni 80 foizga qisqardi va bu ayni vaqtda bunday yuksak sifatli yerlar deyarli qolmadi, sifati yaxshi yerlar ham 25 foizga qisqardi.(3- rasm).[]

Hukumat melioratsiya sohasidagi ahvolni o'nglash choralarini ko'rmoqda. 2007 yilda sug'oriladigan yerlarning meliorativ ahvolini yaxshilash fondi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yilning 19 martida qabul qilingan "2008-2012 yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi to'g'risida"gi 817- qarorida kollektorlar, melioratsiya quduqlari, nasos stantsiyalarini qurish, qayta tiklash, ta'mirlash (tozalash), drenaj

tarmoqlarini qayta tiklash, melioratsiya texnika va uskunalarini sotib olish bo'yicha aniq rejalar ko'zda tutilgan.

### 3 – rasm

#### 1997-2007 yillarda sug'oriladigan yerlarning sifat dinamikasi



O'zbekiston agrar sektorining yerdan foydalanish bilan bog'liq yana bir jihatini qayd etish lozim: qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar faqat davlat mulki hisoblanadi. Mustaqillikka erishilgach, ushbu printsip mamlakatning 1992 yil qabul qilingan yangi konstitutsiyasidan joy oldi va keyinchalik 1998 yilgi yer kodeksida ham o'z ifodasini topdi. Qishloq xo'jalik yerlari davlat tomonidan yerdan foydalanuvchilar o'rtaida taqsimlandi. Bunda qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar quyidagilarga beriladi:

- doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli foydalanish va ijaraga olish huquqi asosida yuridik shaxslarga;
- umrbod egalik qilish va meros qilib qoldirish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtinchalik) foydalanish va ijaraga olish huquqi asosida jismoniy shaxslarga.

Umrbod egalik qilish va meros qilib qoldirish uchun berilgan qishloq xo'jalik yerlarini sotish, sovg'a sifatida berish yoki almashish mumkin emas.

Davlatdan qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun ijaraga olingan yerlar subijaraga berilishi mumkin emas. Yerga egalik qilish huquqining yo'qligi, subijaraga

berishning cheklanganligi yerlarni ularning egalari va foydalanuvchilar o’rtasida qayta taqsimlash bo'yicha bozor mexanizmining shakllanishini qiyinlashtiradi. Natijada yerdan foydalanuvchilar yer uchastkalarini o'z istagi bo'yicha boshqarish imkoniga ega emas – ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida qo'shimcha yer sotish mushkul. Bu borada faoliyat ko'rsatmayotgan va samarasiz ishlayotgan yerdan foydalanuvchilar ortiqcha yerni faol yoki samarali ishlaydigan foydalanuvchilarga topshirgan holda tasarruf eta olmaydi. Bundan tashqari, amaldagi yerdan foydalanish tartibida kredit olishda yerdan kafolat sifatida foydalanish imkonи ko'zda tutilmagan va bu qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy imkoniyatlarini jiddiy cheklaydi.


Quyida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining boshqa omillariga (tabiiy resurslardan tashqari) qisqacha ta'rif berilgan. Qishloq xo'jalik korxonalari asosiy fondlarining qiymat tuzilmasining aksariyat qismi (3/2 qismidan ko'prog'i) mashinalar va uskunalar ulushiga to'g'ri kelishi aks ettirilgan. Binolar va inshootlarga esa kamida 15 foizi to'g'ri keladi. Chorvachilikda chorva mollari asosiy kapitalning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. 1991-2007 yillarda chorva mollari sonining o'sish sur'ati 1991 yildan buyon qoramollar (46 foizga), qo'y va echkilar soni (25 foizga, 1996 yilga nisbatan esa 54 foizga) ko'paygan. 90-yillarning birinchi yarmida parrandalar soni keskin kamaygan – 64 foizga. Biroq, 1997 yildan boshlab, parrandalar soni ko'paymoqda (10 yil mobaynida ikki baravardan oshdi). Ammo 1991 yilgi darajaga yetish uchun bu o'sish kamlik qiladi.

Mehnat resurslari. 2015 yilda agrar sektorda qariyb 3,8 million kishi ish bilan band bo'ldi, bu mamlakat iqtisodiy faol aholisining 25 foizini tashkil qiladi. 1991-2007 yillarda agrar sektordagi bandlik 4,2 foizga kamaydi, umumiy bandlikdagi ish bilan ta'minlanganlar ulushi 39,3 foizdan 26,5 foizga, ya'ni, taxminan uchdan bir baravarga qisqardi. Tarmoqda ish bilan bandlikning kamayishi jumladan, amalga oshirilayotgan qishloq xo'jalik islohotlari bilan bog'liq bo'lib, bu samarasiz bandlik hajmining kamayishiga olib keldi.

1991-2007 yillarda asosiy turdag'i qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'zgarish sur'ati quyidagicha yuz bergan. Ziroatchilikda bug'doy (o'sish qariyb 10 baravar), kartoshka, meva, uzum, sabzavot yetishtirish jadal rivojlandi. Bu borada paxta, boshqa don va poliz ekinlari (bug'doydan tashqari) yetishtirish kamaydi. go'sht-sut chorvachiligi jadal rivojlandi (ishlab chiqarish 1,5 baravardan oshdi). Chorvachilikning boshqa tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmi kamaydi, bu asosan qorako'lchilik va pillachilikka taalluqlidir.

Qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi va unumidorligi. So'nggi yillarda O'zbekistonda eng keng tarqalgan aksariyat ekinlar hosildorligi oshmoqda (masalan, bug'doy 1991 yildan buyon 2,5 va 1995 yildan boshlab 2,2 baravar, kartoshka 1991 yildan buyon 2,2 va 1995 yildan boshlab 2 baravar). Biroq, 90-yillarda paxta hosildorligi pasaydi (1991 yildan 1998 yilgacha 22 foizga) va shundan buyon 1991 yilgi darajaga yetgani yo'q. Sut sog'ib olish miqdori sezilarsiz darajada oshmoqda. Shunisi e'tiborga molikki, dehqon xo'jaliklari ekin maydonlarining atigi 12,9 foizidan foydalangan holda, qiymat ifodasida qishloq xo'jalik mahsulotlarining 62,7 foizini yetishtiradi. (4-rasm).

#### 4 – rasm Asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlarini zo'jaliklar toifalari bo'yicha etishtirish



Fermer xo'jaliklarida unumdorlik darajasini baholash bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar o'rtaida bevosita uzviylik borligini ko'rsatdi:

- Fermer xo'jaligining ko'lami (sug'oriladigan va ekin yerlari hajmi, ishchilar va foydalilaniladigan texnika soni). Xo'jalik qancha katta bo'lsa, oila farovonligi ham shuncha yuqori bo'ladi;
- Kommunal infratuzilmaning rivojlanganlik darjasasi (gaz, suv, elektr ta'minoti, telefon, kirish yo'li) mavjudligi va ahvoli;
- Qoramol podasi soni. Sog'in sigirlar soni farovonlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish rentabelligining mutloq ko'rsatkichi bilan bir qatorda uning nisbiy ko'rsatkichidan ham foydalilanadi. Bu ko'rsatkich o'zida rentabellik normasi va foyda normasini ifoda etadi. Qishloq xojalik korxonalar mahsulotlari chorvachilik tarmoqlari doirasida ayrim chorva hayvon turlari doirasida, ayrim mahsulot ishlab chiqarish va sotish harajatlari rentabelli aniqladanadi. Bu ko'rsatkichni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishslash va sotish jarayonlarida qilingan harajtlarning qoplash muddatlarini aniqlashda universal deb hisoblanadi.

Shu bilan birga, foyda samaradorlikni yagona va butun qamrab oluvchi ko'rsatkich hisoblanmaydi. Yangitdan yaratilgan qiymatning bir qismi sifatida, u moddiy ishlab chiqarish sohasidagi xodimlar qo'shimcha mehnati bilan yaratilgan qo'shimcha mahsulotni pulda ifodalangan qismini ifodalaydi. Uning miqdori ma'lum darajada mahsulot bahosi darajasining asoslanganligiga bog'liq. Bundan tashqari, foyda strukturaviy o'zgarishlarga, yuqori rentabelli mahsulot turlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish yo'li bilan va past rentabelli mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirish yo'li bilan ham oshishi mumkin. Rentabellikning mutlaq ko'rsatkichi foydaning mutlaq miqdorida ifodalanadi:

$$D = PT - MX \quad (1)$$

Foydaning mutlaq miqdori muhim ahamiyatga ega, u iqtisodiy rag'batlantirish fondini vujudga keltirishni miqdoriga bog'liq. Shu bilan birga, foydaning mutlaq miqdori ishlab chiqarish faoliyatninig iqtisodiy natijalarini to'la

baholashga imkon bermaydi. Amaliyotda ishlab chiqarishda har turdag'i mahsulot foydaniq mutlaq miqdori ko'p yoki oz b'olishi mumkin. Ikki holatda ham mahsulot ishlab chiqarish rentabelli bo'ladi, lekin uning darajasi turlich'a bo'lishi mumkin, chunki bu tannarxga bog'liq. Shuning uchun mumtoz iqtisodchilar shunday deb yozadilar: «Boylik darajasi - mahsulotning mutlaq miqdori bilan emas, qo'shimcha mahsulotni nisbiy miqdori bilan o'lchanadi». Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish rentabellini to'la xarakterlash uchun nisbiy ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi: rentabellik darajasi va foyda normasi. Rentabellik darajasi so'f foydani tijorat tannarxiga bo'lish orqali aniqlanadi va foizlarda quyidagi formula bilan hisoblaniladi:

$$PR = \frac{I}{PC} \times 100 \quad (2)$$

O'zbekiston Respublikasining korxonalar bankrotligi va sanatsiyalari masalalari bo'yicha hukumat komissiyasi tomonidan (1997 yil 17 aprel 4-sont buyrug'i) hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi bilan (1997 yil 30 may) kelishilgan holda "Korxonaning moliyaviy tahliliga doir uslubiy tavsiyalar (instruktsiya)" bo'yicha olib boriladi. Ushbu yo'riqnomalar bo'yicha rentabellikning quyidagi ko'rsatkichlari hisoblanadi:

1. Mahsulot sotishning rentabelligi koeffitsiyenti sotilgan mahsulot birligiga qancha foyda to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Bu koeffitsiyent narx belgilash siyosatidagi o'zgarishlarni va xo'jalik yurituvchi sub'ektning sotilgan mahsulot tannarxini nazorat qilib turish qobiliyatini ko'rsatadi. Koeffitsiyent dinamikasi narxlarni qayta ko'rib chiqish yoki moddiy zahiralardan foydalanish ustida nazoratni kuchaytirish zarurligidan dalolat beradi. Uning pasayishi turli sabablarga ko'ra korxona mahsulotlariga talabning pasayganligini ko'rsatadi. Rentabellikning ushbu ko'rsatkichi quyidagicha hisoblanadi:

$$Rm.s = \frac{F(Z)}{T} < 0 \quad (3)$$

Bunda F(Z)-sotishdan olingan foyda(zarar), T-pul tushumi.

Agar mahsulot sotish rentabelligi koeffitsiyenti hisobot davrida 0 dan kam qiymatga ega bo'lsa, unda qishloq xo'jalik korxonasi bu ko'rsatkich bo'yicha zarar bilan ishlaydi deb hisoblanadi.

2. Asosiy vositalar va oborotdan tashqari boshqa aktivlarning rentabelligining koeffitsiyenti asosiy vositalar va oborotdan tashqari boshqa aktivlardan foydalanish samaradorligini aks ettiradi, ya'ni qishloq xo'jalik korxonasing moliyaviy xo'jalik faoliyatida ishlatadigan aktivlardan foyda yoki zarar ko'rish darajasini ko'rsatadi:

$$Rav = \frac{SF(Z)}{A_1} < 0 \quad (4)$$

Bunda, SF(Z)-soliqqa tortishga qadar bo'lgan foyda(zarar), A1-uzoq muddatli aktivlar.

Agar aktivlarning rentabelligi koeffitsiyenti (zararlilik ko'rsatkichi) hisobot davrida 0 dan kam qiymatga ega bo'lsa, unda qishloq xo'jalik korxonasi bu ko'rsatkich bo'yicha zarar bilan ishlaydi deb hisoblanadi.

3.Xususiy kapitalning rentabelligi koeffitsiyenti o'z kapitalidan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi. Koeffitsiyent dinamikasi korxona aktsiyalari kotirovka darajasiga ta'sir qiladi. Bu koeffitsiyent darajasi investitsiya qilingan kapitaldan foydalanish samaradorligini belgilash va bu ko'rsatkichni ushbu mablag'larni boshqa qiymatli qog'ozlarga sarflashdan olishi mumkin bo'lgan daromad bilan pasayishi ham mahsulotlarga talabning pasaygani va aktivlarning ortiqcha to'planib qolganidan dalolat beradi:

$$Rxk = \frac{SF(Z)}{Xkk} \quad (5)$$

Bunda, Xkq- qishlok xo'jaligi xususiy kapital qiymati. Agar xususiy kapital rentabelligi koeffitsiyenti 0 dan kichik bo'lsa, unda qishloq xo'jalik korxonasi ushbu ko'rsatkich bo'yicha zarar bilan yakunlangan hisoblanadi.

4.Permanent kapitalning rentabelligi koeffitsiyenti korxona faoliyatiga sarflangan kapitaldan (o'zining va qarzga olingan) foydalanish samaradorligini aks ettiradi:

$$Rpk = \frac{SF(Z)}{P_1 + Xkk} \quad (6)$$

Bunda, P1-o'z mablag' manbalari. Agar permanent kapital rentabelligi koeffitsiyenti 0 dan kichik bo'lsa, korxona ushbu ko'rsatkich bo'yicha iqtisodiy nochor hisoblanadi.

5.Kapital umumiay aylanuvchanligining rentabelligi koeffitsiyenti korxona butun kapitalining aylanish tezligini aks ettiradi. Uning o'sishi korxona mablag'lari oborotining jadallahganligini yoki narxlarning infliyatsion o'sishini anglatadi:

$$Rkua = \frac{T}{BYA} < 1 \quad (7)$$

Bunda: BYA - balans yakuni.

Agar kapital umumiay aylanuvchanligining rentabelligi koeffitsiyenti 1 dan kichik bo'lsa, korxona ushbu ko'rsatkich bo'yicha iqtisodiy nochor hisoblanadi.

Rentabellikning ko'rsatkichlari ichida sotilgan mahsulotlarning tannarxiga kiritilgan xarajatlar rentabelligi universal ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni ayrim korxona, tarmoq va mahsulotlar bo'yicha hisoblash mumkin.

## **2– Bob. Xo’jaobod tumanidagi “Istiqlol” fermer xo’jaligining umumiy tavsifi va iqtisodiy ko’rsatkichlari tahlili**

### **2.1. “Istiqlol” fermer xo’jaligining umumiy tavsifi**

Mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligining asosiy tayanchi bo’lgan chorvachilik tarmogi va uni samarali faoliyat yuritishi go’sht va sut ishlab chiqrishni ko’paytirishga bog’liq. Xususan, qishloq xo’jaligida mulkchilik va xo’jalik yuritish shaklini o’zgartirish, ekin maydonlari bilan ta’minalash, ishlab-chiqarishga yangi texnika va ilg’or texnologiyalarni joriy etish, zotli chorva xayvonlari bilan ta’minalash, naslchilik ishlarini tubdan yaxshilash, zooveterinariya xizmatlarini yaxshilash, asosiy vositalar va zaruriy jixozlar bilan ta’minalash borasida keng qamrovli, shu bilan birga, puxta o’ylangan ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bunday o’zgarishlarni soni ko’payib borayotgan fermer xo’jaliklari misolida ham ko’rish mumkin.

Xo’jaobod tumanidagi “Istiqlol” chorvachilik fermer xo’jaligi 1999 yil 15 May kuni tuman hokimining № 273 qarori bilan tashkil etilgan va 01759/1 raqamli guvohnoma bilan ro’yhatga olingan. Xo’jalik “Birlashgan” QFYnining “Xidirsha” massivi hududida joylashgan. Yer maydoni 14,2 hektar bo’lib, undan ekin ekiladigan qismi 9,2 ga tashkil etadi.

«Istiqlol» fermer xo’jaligi qulay shart-sharoitga ega bo’lgan, aholi punktiga yaqin joylashgan, oqava suv bilan ta’milangan, o’rtacha tuproq unumdorligiga ega bo’lgan, tekislikda joylashgan xo’jaliklar qatoriga kiradi. Ya’ni, fermer xo’jaligining joylashgan o’rni qulay bo’lib, kelajakda bu imkoniyatlardan samarali foydalanish mumkin.

«Istiqlol» fermasini ob-xavo va iqlim shart-sharoiti keskin kontinental (o’zgaruvchan) bo’lib, yoz kunlari issiq, qishi kunlari esa sovuqdir. Yoz faslida havo harorati +38-42 darajagacha ko’tarilsa, qish faslida - 14-15 darajagacha pasayishi mumkin. Yillik yog’in miqdori talab darajasida bo’limganligi sababli

sug'orib dehqonchilik qilinadi. Xo'jalikadagi o'rtacha kunlik harorat 18 gradusga va namlik 22,0 millimetrga teng.

Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermer xo'jaligi o'zining iqtisodiy munosabatlarini olib borishda asosan tumandagi “Don mahsulotlari” qabul qilish shoxobchasi, tuman OAJ MTPsi, tuman Uzqishloqxo'jalikkimyo tashkiloti, tuman Yonilg'i moylash materiallarini tarqatish neftibazasi, O'simliklarni kamyoviy va biologik himoya qilish tashkilotlari, Suv iste'molchilari uyushmasi, shu bilan birgalikda tumandagi moliyaviy institutlar bo'l mish bank, moliya, soliq, sug'urta va boshqalar bilan olib bormoqda.

Xo'jalik Xo'jaobod tumanining “Uzqishloqxo'jalikkimyo” OAJdan 3 kilometr, tuman Don qabul qilish maskandan 6 kilometr, tuman MTP OAJ tashkilotidan 3 kilometr, Yonilg'i moylash materiallarini tarqatuvchi bazadan 4 kilometr uzoqlikda joylashgan. Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermer xo'jaligi tuman markazidan 8 kilometr va viloyat markazidan 26 kilometr uzoqlikda joylashgan. Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermer xo'jaligi Xo'jaobod – Do'astlik avtomobil yo'liga yaqin joyda joylashgan.

Xo'jalikni asosiy ishlab chiqarish infratuzilmalarga yaqin joylashganligi tufayli transport harajatlarini va texnikalarga texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini tejash imkoniga ega. Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermer xo'jaligi “Mash'al” va “Mulla Yahyo” fermer xo'jaliklari bilan chegardosh hisoblanadi. Ikkala xo'jalik ham chorvachilik sohasifa ixtisoslashgan xo'jaliklar bo'lib hisoblanadi.

### **1-jadval**

#### **Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasini ijara olingan yer uchastkalarini umumiy holati**

Kontur tartib raqami	Umumiyl yer maydoni	SHundan						Bonitet bali
		Ekin yeri	Tutzor	Arik zovur	Yo'l lar	Imorat ostida	Boshqa yerlar	
583	14,2	9,2	-	0,9	0,7	3,5	-	59
1ta	14,2	9,2	-	0,9	0,7	3,5	-	59

Manba: Xo'jaobod tumanining Kadastr bo'limini ma'lumotlariga asosan.

Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasiga uzoq muddatga foydalanish uchun berilgan yer uchastkalari suv bilan ta'minlangan, eskitdan sug'orib kelinadigan, o'rtacha madaniylashtirilgan, o'rtacha eroziyaga uchragan, sizot suvlari 5-6 metr chuqurlikda joylashgan, tuproq baniteti 59 ballga teng bo'lган yerlar tarkibidan iborat. Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermer xo'jaligiga biriktirilgan yer uchastkalari 1ta konturdan iborat bo'lган 9.2 hektar yerni 45 yillik uzoq muddatga foydalanish uchun davlat tomonidan ijaraga berilgan.

## 2-jadval

### Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasiga ijaraga olgan yer uchastkalarini konturlar bo'yicha taqsimoti

t/r	kontur rakami	o'rtacha bonitet ball	er maydoni (ga)	Kadastr guruxlari.									
				yomon yerlar		o'rtachadan past yerlar		o'rtacha erlar		yaxshi erlar		eng yaxshi erlar	
				SHu jumladan, kadastr guruxlar bo'yicha									
				I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X
				banitet ballari									
				1- 10	11- 20	21- 30	31- 40	41- 50	51- 60	61- 70	71- 80	81- 90	91- 100
1	583	59	14,2	-	-	-	-	-	-	14,2	-	-	-
x	Jami	59	14.2	-	-	-	-	-	-	14.2	-	-	-

Manba: Xo'jaobod tumanining Kadastr bo'limini ma'lumotlariga asosan

Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermer xo'jaligi 2012 yil 2 maydan boshlab Xo'jaobod tuman hokimligini № 301-k sonli qarori bilan ta'sis hijjatlariga o'gartirish kiritilgan. Ajratilgan yer uchastkalarni 0.9 hektari arik va zovurlar, 0.7 hektari yo'llar bilan, 3.5 hektari imorat bilan, 9,2 hektari pichanzor yerkari ko'rinishida foydalanib kelangan. Xo'jalikni yer uchachstkalari 1ta konturdan iborat bo'lib, tuproq unumdorligi 65 balga teng.

Xo'jalikni ekin maydonining xajmi va konturlar soni, texnika vositalaridan, mehnat va suv resurslaridan samarali foydalanish, hamda yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Xo'jalikni yer uchastkalarini o'rtacha xajmi 9.2 hektarni tashkil etadi. Yer uchastkalarini har 50-60 metrda o'q-ariqlar tortilgan. Dalani uzunligi 600-900

metrndan iborat. Yer uchastkalarini bu jihatlari sug'orish kartalariga qo'yilgan talablarga to'la javob beradi.

Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermer xo'jaligi yerlarida sizot suvlari 5-6 metr chuqurlikda joylashgan. Xo'jalik tuproqlari tipik bo'z tuproqdan iborat bo'lib, tuproqda 1,6-1,8 foizgacha chirindi va 0,1-0,2 foizgacha azot borligi bilan harakterlanadi. Tuproqdagi chirindi miqdori o'rtacha. Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasida yer uchastkasidan foydalanish xolati yuqori darajada bo'lib yildan-yilga yem xashak ekinlar xosildorligi ortib bormokda.

Ekinlardan yuqori hosil olish uchun mineral o'g'itlardan foydalanish zarur. Shundan kelib chiqib, har bir gektar hisobiga sof xolda azotli o'g'itni 160-200 kgni; fosforli o'g'iti 170-190 kgni; kaliy o'g'itni 70-95 kgni va organik o'g'it solish me'yori 10-15 tonnani tashkil etadi.

Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermer xo'jaligi chorvachilikning qoramolchiligiga ixtisoslashgan. Xo'jalik o'z faoliyatini uzoq muddatga olgan kredit hisobiga olib bormoqda. Uzoq muddatli kreditlarni yillik daromad hisobiga so'ndirib kelmoqda. Xo'jalik o'rtacha rentabellik darajasiga ega.

Xo'jalik uch yillik faoliyati ichida olingan daromad 158506 ming so'mga yoki 28.1 foizga, sarflangan harajat 148492 ming so'mga yoki 28.9 foizga, foyda olish 10144 ming so'mga yoki 120.3 foizga ko'paygan.

Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermer xo'jaligida 2015 yilli jami 4ta a'zo bo'lib, ularning hammasi doimiy shartnomaga asosida ishlayotgan a'zolar hisoblanishadi, ishlab chikarish buyicha ish tajribalari talab darajasida. Xo'jalik a'zolari ichida faqat boshliq oliy ma'lumotga ega, qolgan 4tasi mahsus o'rta ma'lumotga ega. Xo'jalik a'zolardan 3tasi erkaklarni va 1tasi ayyollarni tashkil etadi. Xo'jalik a'zolari ichida turli kasb egalari mavjud, ularning ichida sog'uvchi, molboqar, qorovul, ishchi mavjud. Xo'jalik a'zolarini o'rtacha yoshi 35 yoshga teng.

Xo'jalikni doimiy xodimlari 1 yillik mehnat shartnomasiga asosan faoliyat ko'rsatishib kelmoqda. Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar fermer xo'jaligi ishchilar tarkibini hali talab darajasidan ancha past ekanligini asoslaydi. Shuning

uchun xo'jalik rahbariyati ishchilarni kasbiy tayyorgarlikka va ishlab chiqarish tajribasiga ega bo'lgan xodimlar hissasini keskin oshirish chora-tadbirlarini ko'rishi lozim.

### 3-jadval

#### **Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasining a'zolari va ularning tarkibi to'g'risida ma'lumot**

t/r	A'zolarning ismi va sharifi	Tug'ilgan yili	Ma'lumi	Kasbi	Ish staji	Boshliqqa a'loqasi
1	Babaev B	1978	oliy	f/x bosh.	17	O'zi
2	Mansurov K	1967	m/o'rtta	Molboqar	28	Mah-dosh
3	Zokirova T	1974	m/o'rtta	Sog'uvchi	18	Mah-dosh
4	Farmonov K	1975	m/o'rtta	Ishchi	17	Mah-dosh
5	Xamraev D	1970	m/o'rtta	Qorovul	22	Max-dosh

**Manba:** Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasiining ma'lumotlariga asosan.

1ta molboqar, 1ta sog'uvchi, 1ta ishchi, 1ya qorovul ishlab kelmoqda. Xo'jalik a'zolaridan molbaqar va soguvchiga har oyda 450-500 ming so'mdan, ish haqi to'lab boriladi. Ish haqi naqd pul va mahsulot ko'rinishida to'lanadi.

Fermer xo'jalik faoliyatini xo'jalik rahbari orqali boshqarib boriladi. Fermer xujaligi raxbari Babaev Baxrombek 1978 yilda Andijon shaxrida tug'ilgan. Ma'lumoti oliy, Andijon muhandislik – iqtisodiyot institutini tamamlagan, iqtisodchi mutahassisligiga ega

Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermer xo'jaligi «Fermer xo'jaliklar to'g'risida»gi qonunga, tuman hokimligining qaroriga, tuman hokimligi tomonidan tasdiqlangan Nizomga, Biznes rejaga hamda tuman hokimligining «Kadastr» bo'limi tomonidan berilgan dalolatnomaga asosan tashkil etilgan. Xo'jalik faoliyati davlat tomonidan chiqarilgan qonunlarga, qarorlarga, farmonlariga va tegishli me'yoriy xujjatlarga asosan amalga oshirib kelinmoqda.

Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasining Nizom fondi 30 mln so'mni tashkil qiladi. Fermer xo'jaligi o'ziga qarashli xo'jalik imoratlari, ishlab chiqarish vositalari, ekinzorlari, pul mablag'lari va boshqa mulkclarini egasi hisoblanadi. Fermer xo'jaligini pul daromadi mahsulot sotish va xizmat ko'rsatish, qimmatli qog'ozlardan olingan divident hisobiga shakllanadi.

Olgan pul daromadidan harajatlarni qoplash, ish haqi to'lash, turli ajratmalarni ajratish, kredit va ustamalarni to'lash, yangi texnika va texnologiyalarni harid qilishga ishlatadi.

Xo'jalik o'zini iqtisodiy munosabatlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamsining 4 sentyabr 2003 yildagi «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirishning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 383-sonli qaroriga muvofiq olib bormoqda. Ushbu qarorga muvofiq xo'jalik davlat buyurtmasi bo'yicha paxta, g'alla va pilla sotish qontraktatsiya shartnomasini tuzgan.

Bundan tashqari Xo'jaobod tumanining MTP OAJ tashkiloti bilan qishloq xo'jalik ishlarini mexanizatsiya vositalari bilan bajarib berish; «Qishloqxo'jalikkimyo» OAJ tuman shahobchasi bilan xo'jalik ekinlarini o'g'itlashda mineral o'g'itlarni yetkazib berish; tuman nefti bazasiga qarashli YOnilg'i-moylash materiallarini tarqatuvchi shahobcha orqali, xo'jalikda qishloq xo'jalik ekinlarni yetishtirishda bajariladigan mexanizatsiya ishlarini yonilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlash; xo'jalik ekinlarini xashorat va zarar kunandalardan himoya qilish bo'yicha biolabaratoriya bilan; ekinlarga suv yetkazib berish bo'yicha massivdagi SFU bilan shartnomalar imzoladi.

Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasi tanlov asosida uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi yuridik sub'ekt hisoblanadi.

Fermer xo'jaligi tuman hokimligida ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomini olgan va o'z nomidan shartnomalar tuzish, mulkiy javobgarlikni o'z zimmasiga olgan.

Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasini moddiy texnik bazasi kichik hisoblanadi. Asosiy vositalar tarkibiga: traktorlar, kombaynlar, qishloq xo'jaligi mashinalari, avtomashinalari, bino- inshoatlari, ko'p yillik daraxtzorlar, ishchi va mahsuldar hayvonlar va boshqa uzoq muddat foydalilaniladigan vositalar kiradi.

Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasini qishloq ho'jaligi texnikalari va qishloq ho'jaligi mashinalari bilan ta'minlanish nisbatan pastroq.

Asosiy vositalarni 87.987 ming so'mi yoki 71 foizi binolarni xissasiga, 480 ming so'mi yoki 2 foizi traktorlar xissasiga va 34.82 ming so'mi yoki 15 foizi issiqxona xissasiga to'g'ri keladi. Bir gektar ekin maydoni xisobiga 13 mln so'mdan asosiy vositalar qiymati to'g'ri kelgan, shundan 8,798 ming so'mlik binolar qiymati, 480 ming so'mlik traktor qiymati va 3,482 ming so'mlik issiqxona qiymati to'g'ri kelmokda. Barcha texnikalar va qishloq xo'jalik mashinalarning texnik jihatdan sozligi talab darajasida bo'lib mutazam texnik ko'riklardan o'tkazilib turiladi.

#### 4-jadval

#### **Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasining asosiy vositalari xaqida ma'lumot (chorva mollaridan tashqari)**

t/r	Vositalar turi	Mikdor	Markasi	Sotib olingan yili	Balans qiymati, mln. so'm	Sotib olish usuli
1.	Ferma binolari	1	Oddiy	1998	8798700	O'z mablag'
2.	Traktor	1	T28X-4	1998	480000	O'z mablag'
3.	Issiqxona	1	Oddiy	2006	3482000	O'z mablag'
	Jami	3	X	x	12767000	X

Manba: Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasiining ma'lumotlariga asosan.

«Istiqlol» fermasi tuman MTP bilan shartnoma tuzib texnikalardan foydalananadi. Xo'jalik qo'shma korxonaga mahsulot sotadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar fermer xo'jaligi tumandagi iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan, kichik va moliyaviy holati nisbatan olinganda barqaror bo'lgan xo'jalik ekanligini ko'rsatadi. Qisqacha xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xo'jalik nisbatan kichik va uni rivojlantirish uchun imkoniyatlar katta. Faqat, xo'jalikni ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish yo'llarini izlab toppish va ularni batafsil rejasini ishlab chiqish zarur.

## **2.2 Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol” fermasida mahsulot yetishtirish xolati taxlili**

O'zbekistonda qoramolchilik chorvachilikni asosiy tarmog'i hisoblanadi. Ushbu tarmoqda jami shartli chorva bosh sonining 3/4 qismi hamda chorvachilikni tovar maxsulotini 2/3 qismi mujasamlangan. Mulklarni davlat ta'sarufidan chiqarish natijasida, qoramollarni mavjud bosh sonini 86,1 foizi, shu jumladan sigirlarni 90 foizi, sutni 93,6 foizi va go'shtni 91,1 foizi xususiy sektor evaziga yetishtirib kelinmoqda.

Qoramolchilikga ihtisoslashgan fermer xo'jaliklar o'z faoliyatini to'la xo'jalik hisobida, xuquqiy me'yorlarga tayangan holda olib borishmoqda. Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol” fermasini xo'jalik yuritish tizimi chorvachilik mahsulotlarini etishtirish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, yuqori natijalarga erishish uchun tashkiliy, iqtisodiy, texnik va texnologik tadbirlar amalga oshirishni yo'lga qo'ygan. Xo'jalik chorvachilik tarmog'ini samarali rivojlanishi uchun fermer xo'jaligining faoloyatini mavjud imkoniyatlar darajasi bilan mutanosib olib borishga harakat qilmoqda.

Xo'jalik chorvachilik mahsulotlari xajmini belgilashda biriktirilgan yer maydonini xajmiga, ularni joylashuviga, yem-xashak bazasini axvoliga hamda ozuqa sotib olish imkoniyatiga e'tibor qilgan holda tashkil etgan.

Xo'jaobod tumanidagi “Istiqlol” fermer xo'jaligi mavjud qoramollarini “og'ilxona – lager” usulida, yani mollarni qishda og'ilxonada boqib, yozda fermadan uzoq bo'limgan o'tloqlarda boqishni tashkil etgan. Qoramollarni “og'ilxona–lager” usulida parvarishlash, chorva mollarini saqlash, maxsulorligini oshirish, xarajatni qoplash imkonini beradi.

Qoramolchilikni ixtisoslashtirish, yuqori sifatli va to'yimli ozuqa bilan ta'minlash, genetik imkoniyatlariga e'tibor qilish, mexanizatsiyani qo'llash va maxsulotni qayta ishslashni tashkil etish, tarmoqni jadal rivojlanishiga olib keladi. Xo'jalik rahbariyati aholini o'sishi va chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabni

ortishini inobatga olgan holda podani ko'paytirish, tarkibini o'zgartirish, zotini yaxshilash, mahsuldorligini oshirishga e'tibor qilib kelmoqda.

Chorva mollari qanchalik zotdor va mahsuldor bo'lsa, ularga sarflanadigan xarajatlar shuncha kam bo'ladi. Chorva mollaridan yuqori mahsulot olish uchun zotini yaxshilash, oziqa bilan taminlash, boqish, sug'orish, saqlash ishlarini to'g'ri tashkil etish kerak. Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermer xo'jaligida qoramol poda xarakatida chorva mollar bosh sonini o'zgartirmasdan, mahsuldorlikni oshirishga erishish tadbirlari amalga oshirib kelinmoqda. Isriqlol fermer xo'jaligining asosiy vositalari oxirgi uch yil mobaynida ko'payib brogan va 137 mln so'mdan 159 mln so'mgacha etgan. Bunda o'sish asosan mahsuldor hayvonlar qiymatini ortishi evaziga yuz bergen.(5-jadval).

## 5 – jadval

### **Istiqlol fermer xo'jaligida asosiy vositalar tarkibi**

<b>№</b>	<b>Tarkibi</b>	<b>2013</b>	<b>2014</b>	<b>2015</b>	<b>2015/2013</b>
1	Bino	87987,9	87987,9	87987,9	100
2	Transport vositalari	0,48	0,48	0,48	100
3	Ishchi maxsulor xayvonlar	16286,4	27228,1	38319,1	2,35 baravar
4	Boshqa asosiy fondlar	33534,1	33534,1	33534,1	100
5	Jami	137808,9	148750,6	159841,6	+ 1,16

Istiqlol fermer xo'jaligida mahsuldor hayvonlar miqdori natural miqdorda lami bo'lib 34 boshni tashkil etadi. Shundan 10 boshi sogorlar, 12 bosh novvoslar va qolgan 12 boshi boshqa turdag'i hayvonlardan iborat. Jadval ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasini qoramolchilik tarmog'ida 31.12.2015 yil kuniga jami qoramollar 34 boshni, shundan sigirlar 10 boshni, novvoslar 12 boshni va qolganlari 12 boshni tashkil etgan.

Xo'jalikda o'rtacha qoramollar bosh sonini 34 boshni, shundan sigirlar 10 boshni, g'unojinlar 12 boshni, yosh novvoslar 12 boshni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichni tegishli shartli qoramollarga aylantirish koeffitsiyentlarga ko'paytirish orqali Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasida jami 34 bosh shartli qoramollar bosh soni mavjudligi aniqlandi. Xo'jaobod tumanidagi "Istiqlol" chorvachilik fermer xo'jaligida mavjud qoramollar bosh sonini e'tiborga olgan

xolda biriktirilgan yer uchastkalaridan em xashak taylorlash va sigirlarni boqish uchun samarali foydalanishga harakat qilib qilingan.

#### **6 - jadval**

#### **Xo'jaobod tumanidagi "Istiqlol" fermer xo'jaligida chorva soni**

t/r	CHorva guruxlari	Bosh soni		SHartli chorva bosh soniga o'tkazish koeffitsenti	SHartli chorva bosh soni
		31.12.2015ga qoldik bosh soni	O'rtacha yillik bosh soni		
1	Sigirlar	10	10	1.0	10
2	Novvoslar	12	12	1.0	12
3	Boshqalar	12	12	1.0	12
	Jami	34	34		34

Xo'jalikni chorvachilik tarmog'ini rivojlanishiga mahsulot sotish bahosi kuchli ta'sir qiladi. Istiqlol fermer xo'jaligida mahsulot etishtirish hajmi oxirgi 3 yil mobaynida 5-6 tonna oralig'ida bo'lган. Bunda 1 kg yarim taylor fabrikat go'shtni bahosi 30800 so'mni, 1litr pasterlangan sut va qatiq mahsuloti bahosi 2500 so'mni tashkil etgan. Gosht mahsulotini etishtirish 5 tonnadan 6 tonnagacha ortgan holda, sut mahsulotini hajmi o'zgarmasdan qolgan.

#### **7 - jadval**

#### **"Istiqlol" fermer xo'jaligida mahsulot etishtirish hajmi va sotish bahosi**

No	Ko'rsatkich nomi	2013	2014	2015
1	1 kg yarim fabrikat go'sht bahosi (so'm)	30800	30800	30800
2	1 litr pasterlangan sut va qatiq bahosi (so'm)	2500	2500	2500
3	Mahsulot etishtirish hajmi			
3.1.	Go'sht (tonna)	5	6	6
3.2.	Sut (tonna)	5	5	5

Istiqlol fermer xo'jaligida mahsulot sotishdan sof tushum 3 yil mobaynida 175 %ga ortgan. Y'ani 146 mln so'mdan 172 mln so'mgacha ko'paygan. Mahsulot tannarxi esa 114 foyzga ortgan holos. Bu fermer xo'jaligiga foydani ko'paytirish imkonini bergen. Tannarx bilan mahsulotni sotish bahosi o'rtasidagi farqni kattaligi fermer xo'jaligiga yalpi foydani ko'paytirish imkonini bergen. Davr xarajatalri bilan ma'muriy harajatlarni ozroq miqdorda ortish esa umumxo'jalik faoliyatini foydasini miqdoriga ta'sir etgan xolos. (8 jadval).

8 jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, 3 yil mobaynida umumxo'jalik faoliyati foydasi 159%ga ortgan. Hisobot davrining sof foydasi esa 167%ga ortgan. Jami budgetga to'lovlar summasini miqdoei esa 130%ga ortgan holos. Bu ham xo'jalik faoliyatini moliyaviy jihatdan ahvolini yaxshilanishiga sabab bo'gan. Daromad solog'i 155%ga ortgam holda yagona yer solig'i 159 %ga ortgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib hulosa qilsak, shu narsa oydinlashadiki, fermer xo'jaligi oxirgi uch yilda mahsulot tannarxini o'sishini keskin pasaytirishga erishgan. Bu eas xo'jalikda moliyaviy barqarorlik holatini yaxshilanishiga olib kelgan. (8-jadval).

#### **8 - jadval**

#### **“Istiqlol” fermer xo'jaligining moliyaviy natijaları**

Nº	Moliyaviy natijalar	2013	2014	2015	2015/2013
1	Mahsulot sotishdan sof tushum	146460,7	152330,6	172230,7	175
2	Maxsulot tannarxi	128322,4	130951,3	145990,6	114
3	Yalpi foyda	18138,3	21379,3	26240,1	144
4	Davr xarajatlari	12915,5	13465,1	14540,1	112
5	Ma'muriy xarajatlar	12915,5	13465,1	14540,1	112
6	Asosiy faoliyatning foydasi -zarari	5222,8	7914,2	11700	224
7	Moliyaviy faoliyat daromadlari	×	578	580	100
8	Umumxo'jalik faoliyatining foyda.zarari	7692,7	8492,2	12280	159
9	Daromad solig'i to'lagunga qadar foyda	7692,7	8492,2	12280	159
10	Xisobot davrining sof foydasi	6139,2	6832,7	10250,4	167
11	Daromad solig'i	538,5	594,5	859,6	159
12	YAgona yer solig'i	1015	1065	1170	155
13	Jami byudjetga to'lovlar summasi	1553,5	1659,5	2029,6	130

Qiyuda keltirilgan 9 jadvalda Istiqlol fermer xo'jaligining debitor va kreditor qarzdorlik ma'lumotlari keltirilgan. Fermer xo'jaligi 13 ta harodorga ega bo'lib, 2015 yilda 7036,5 ming so'm miqdoridagi debotor qarzdorlikga ega bo'lgan. Xo'jalikning kreditorlik qarzi esa 14462 ming so'mni tashkil etgan. Kreditorlik qarz summasi debitorlik qarz summasidan qariyib 2 baravariga katta. Shundan 310 ming so'mo muddati o'tgan kredotorlik qarz summasi bo'lib hisoblanadi. Bu

fermer xo'jaligi mahsulot etkazib berishda o'zining zimmasiga olgan majburiyatlarini vaqtida bajara olmayotganini tasdiqlaydi. Bu esa fermer xo'jaligida mahsulot etishtirsh hajmini ko'paytirishga zarurat borligini tasdiqlaydi. Lekin, xo'jalikning debotor qarzdorlik summasini miqdori kreditorlik summasidan qariyib 2,5 baravariga katta. Bu esa fermer xo'jaligida kredotlik qarzini to'lab berish uchun moluyaviy jihatdan etarlicha imkoniyat borligini ko'rsatadi. Biroq, mahsulotni natural miqdori kozda tutilsa imkoniyat mavjud emas. (9-jadval).

### 9 - jadval “Istiqlol” fermer xo'jaligining debitor va kreditor qarzdorligi

№	Tarkibi	Debitor qarz	Kreditor qarz	M.O'D.Q.	M.O'.K.Q.
1	Uz Peint KO QK		13583,5		
2	Asaka yog' moy	298		296	
3	Andijon yog' moy	164			
4	MTP OAJ	9,5		9,5	
5	KUK		160,1		160,1
6	VetLechebnitsa		33,2		33,2
7	Abdulla f.x	2170,8			
8	Grunch Mozor neft baza	495,8		495,8	
9	Tuman elektr tarmoqlari		0,4		
10	Xo'jaobod chorva ozuqa		567,5		
11	Mulla YAxyo f.x	3878,9			
12	Fermerlar uyushmasi		117,4		117,4
13	Jami	7036,5	14462,1	802,8	310,7

M.O'.D.Q – muddati o'tgan debitor qarzdorlik, M.O'.K.Q – muddati o'tgan kreditorlik qarzdorlik.

Xo'jalikda poda takror ishlab chiqarishni, oddiy va kengaytirilgan usulidan foydalanib kelinmoqda. Podani oddiy ishlab chikarish usuli deganda - chorva bosh sonini ko'paymagan xolatiga aytildi. Podani kengaytirilgan usulda deganda – podani yangilash sonini ko'paytirish, sifati va zotini yaxshilashga aytildi. Podani kengaytirilgan takror ishlab chiqarishi bu doiraviy jarayon bo'lib bunda, ishlab chiqarish va iste'mol qamrab olinadi. Podani takror ishlab chiqarishi - podani urg'ochi mollaridan unumli foydalanish, yosh mollarni yetishtirishni tezlashtirish, nobudgarchilikni kamaytirish, yoshi o'tgan mollarni safdan chiqarish imkonini

yaratib beradi. Lekin, mahsulot hajmini kopaytirish uchun xo'ajalikning xususiy kapitalini ko'paytirish yuz bermagan. Bu esa mahsulot ishlab chiqarish hajmini natural miqdorda ko'paytirish imkinini cheklanib qolganini tasdiqlaydi. (10-jadval).

### **10-jadval**

#### **“Хо’jaobod tumanidagi “Istiqlol” fermer xo’jaligining xususiy kapitali**

Таркиби	сатр	устав капитали	кушилган капитал	резерв капитал	таксимланмаган фойда	хусусий капитал	жами	2013
Йил бошига қолдик	10	853,9	31362,1	59371,1	18160,7		109747,8	
Жорий йил фойда.зарари	60				7222,8		7222,8	
Йил охирига қолдик	80	853,9	31362,1	59371,1	25383,5		116970,6	
Йил бошига қолдик	10	4000	31362,1	59771,1	25383,5		120516,7	2014
Жорий йил фойда.зарари	60				-9507,9		-9507,9	
Йил охирига қолдик	80	4000	31362,1	59771,1	15875,6		111008,8	
Йил бошига қолдик	10	4000	31362,1	59771,1	25383,5		120516,7	2015
Жорий йил фойда.зарари	60				-9507,9		-9507,9	
Йил охирига қолдик	80	4000	31362,1	59771,1	15875,6		111008,8	

10-jadval ma'lumotlariga ko'ra, ustav kapitali 853,9 ming so'mdan 4 mln so'mgacha ko'paygan. Bu kichik miqdorda bo'lsada ijobiyl o'zgarish bo'lib hisoblanadi. Qoshilgan capital miqdori esa o'zgarmasdan qolgan va u hisobot davrida 31 mln 362 ming so'mni tashkil etgan. Rezerv kapital esa 59 mln 371 mln so'mni tashkil etgan va nu korsatkichda ham o'zgarish yuz bermagan. Taqsimlanmagan foyda miqdori esa 18 mln so'mdan 15 mln so'mgacha qisqorgan. Bu qarzdorlik summasini ko'payib ketgani bilan bog'liq bo'gan. 2014-2015 yillardagi 9 mln so'mlik zarar summasi ushbu holatni yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Y'ani, fermer xo'jaligi mijozlardan mahsulot etkazib berish uchun bo'nak olgan holda o'zining majbiriyatini bajara olmagan.

Oxirgi uch yilda xo'jalikni iqtisodiy samaradorligi ma'lum darajada kamaygan. Buni biz samaradorlikni yakunlovchi ko'rsatkichi xisoblangan

rentabellik darajasidan ko'rib olishimiz mumkin. 2015 yilda 2013 yilga nisbatan rentabellik darajasi 0.6 darajaga 9.6 foizdan 9.0 foizga kamaygan. Xo'jalikni erishgan rentabellik darajasini kamayishiga foydani kamayganligi salbiy ta'sir ko'rsatdi. Xo'jalikni erishgan rentabellik darajasi optimal darajadan kam bo'lib mahsulot tannarxini pasaytirish asosida mahsulot sifatini yaxshilash hisobiga daromadni oshirish lozim.

Iqtisodiy ko'rsatkichlari ichida rentabellik darajasi alohida o'rinni tutadi. U daromadlar bilan xarajatlarni taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi, bir so'm xarajat xisobiga olingan foydani aks ettiradi.

Rentabellik foydalanish va qo'llash jihatidan sodda va qulay iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi, undan ilmiy tadqiqotda va amaliyotda keng qo'llaniladi. Biz ham Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda rentabellik darajasidan foydalanildi. U samaradorlikni asosiy yakunlovchi iqtisodiy ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi.

## **11-jadval**

### **Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorligi**

t/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2013 y	2014 y	2015 y	2015-2013 yilga nisbatan %
1	CHora bosh soni	b/s	34	34	34	100
2	Jami ekin maydoni	ga	9,2	9,2	9,2	100
3	Xodimlar soni	nafar	4	4	4	100
4	Jami i/ch xarajat.	m.so'm	128322,4	130951,3	145990,6	114
	SHundan-ish haqi	m.so'm	25664	26190	29198	113
5	Yalpi mahsulot	m.so'm	146460,7	152330,6	172230,7	175
6	Foyda	m.so'm	18138,3	21379,3	26240,1	144
7	Rentabellik	%	14%	16%	18%	+4
8	Bir bosh chorva xisobiga:					
	-xarajat	m.so'm	3774	3851	4294	114
	-yalpi mahsulot	m.so'm	4307	4480	5065	117
	-foyda	m.so'm	533,4	628,8	771,7	144
9	Bir xodim xisobiga:					
	-chorva bosh soni	b/s	8,5	8,5	8,5	100
	-ish haqi	m.so'm	6416	6547	7299	114
	-yalpi mahsulot	m.so'm	36615	38082	42807	116
	-foyda	m.so'm	4534	5345	6560	144

Respublika hukumati chorvachilik borasida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga alohida ahamiyat berib kelmokda. Bu borada Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasida bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Xo'jalik chorvachilik mahsulot yetishtirishga ixtisoslashgan.

Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarishning yakuniy darajasi hisoblanib u murakkab va ko'p qirrali iqtisodiy kategoriyadir. Uni aniqlashda bir qator miqdor va qiymat ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ular ichida rentabellik darajasi aloxida o'rinni tutadi. Fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorligi rentabellik qo'rsatkichi orqali aniqlanar ekan, shuning uchun ham rentabellik iqtisodiy samaradorlikning yakunlovchi asosiy ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Xo'jalikda rentabellik ko'rasotkichi 14%dan 18%gacha ortgan yoki plus 4 darajaga ortgan.

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinish turibtiki xo'jalikda chorvachilik mahsulotlar yetishtirishga sariflangan xarajatlar yildan – yilga ortmoqda. Bunga bevosita zaruriy xomashyolar harid narxlari ortganligi tufayli xarajatlar ko'paygan. Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol» fermasida sut ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini ko'rib chiqadigan bo'lsak qo'ydagidan ma'lumotlarga ega bo'lamicha.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibtiki oxirgi uch yilda fermer xo'jaligida sut ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha ijobjiy tomonga o'zgargan. Buni biz yer birligi va bir xodim xisobiga olingan yalpi mahsulot, ish haqini ko'payganligidan ko'rib olishimiz mumkin.

### **3-Bob: Xo'jaobod tumanidagi "Istiqlol" fermer xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlari**

#### **3.1. Chorvachilik fermer xo'jaliklarida mahsulot etishtirish texnologiyasi**

Ishlab chiqarishni tashkil etish usullari, texnologiya va texnologik jarayon haqida tushuncha. Hozirgi vaqtda sanoat asosida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni tashkil etishning quyidagi usullari keng tarqalmoqda.

1). CHorvachilik mahsulotlari yetishtiradigan fabrikalar. Bu sanoat tipidagi ixtisoslashtirilgan parrandachilik fabrikalari faqat bir turdag'i mahsulotni (ko'pincha tuxum, parranda go'shti) ko'plab etishtirishga mo'ljallangan. Bunday fabrikalarda mahsulot yetishtirish nihoyatda yiriklashgan. CHorvachilik mahsulotlari yetishtiradigan korxonalar sanoatda ishlab chiqarilgan omixta yem bilan ta'min etiladi. Masalan, Toshkent viloyatida tuxum va parranda go'shti yetishtiradigan fabrika mavjud. Bu yerda ishlab chiqarishning hamma jarayonlari mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan. Mazkur korxonalar yaxshi natijalarga erishmoqdalar. Ularda viloyat bo'yicha yetishtiriladigan tuxumning 80 % dan ziyodrog'i realizatsiya qilinmoqda. Go'sht va tuxum yetishtiradigan fabrikalar asosan yirik shaharlar atrofida va sanoat markazlarida qurilishi kerak. Bu yetishtirilgan yangi mahsulotni iste'molchilarga realizatsiya qilishni osonlashtiradi. SHu bilan birga bunday fabrikalar uchun quriladigan ishlab chiqarish binolari unchalik katta joyni egallamaydi.

2). Sut yetishtiradigan chorvachilik komplekslari. Sut yetishtiradigan chorvachilik kompleksini fabrikalardan farqi shundaki, ular tsexlardan iborat bo'lib, xomashyo va tayyor mahsulot ishlab chiqaradi. Bu yirik zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyasi asosida yuqori darajada mexanizatsiyalashtirilgan korxona xo'jalik ichida ixtisoslashtirish negizida kam mehnat sarflab, ko'proq sifatli va arzon mahsulot yetishtirishni ta'minlaydi. 1200 bosh sigirni bog'lab boqishga mo'ljallangan sut yetishtirish kompleksida sigirlarni sutquvurlarda sog'ish, ozuqalarni transport yordamida tarqatish, go'nglarni suv bosimi yordamida oqib

chiqib ketishi mo’ljallangan. Molxonada sigir va g’unajinlar har qatorda (kengligi 1,1-1,2 m) 50 tadan qilib bog’lab boqiladi. Bir yilda 5418 tonna sut miqdori etishtiriladi. yer maydoni 7, 26 gettarni tashkil etadi. 800 boshga mo’ljallangan sut yetishtirish kompleksida sigirlar bog’lab boqishga mo’ljallangan. Ushbu kompleksda 200 bosh sig’adigan 4 ta sigirxona (tug’ruqxona, profilaktoriyasi bilan), yosh mollar uchun bino, veterinariya joyi (izolyator bilan) va boshqa binolar bor. Sigirxonada sigirlarni bog’lash va yechish mexanizm yordamida bajariladi. Sigirlarni turgan joyda sog’ish uchun DAS-2 va AD-100 qurilmalari o’rnatalgan. Sog’ilgan sut sigirxona yoniga qurilgan sutxonalarda yig’iladi. Go’nggi transportyor

yordamida chiqarilib tashlanadi (TSN-2 va TSN-3B). yem-xashak oxurlarga transport yoki statsionar oziq tarqatkichlar bilan to’ldiriladi.

3). Qoramol go’shti yetishtirish komplekslari. Qoramol go’shti yetishtiriladigan korxonalar o’z faoliyatining natijalarini kelajakda yanada yaxshilash uchun katta rezervlarga egadir. Komplekslar 10 ming, 12 ming boshga mo’ljallangan bo’lishi mumkin. 10 ming boshga mo’ljallangan bo’lsa yosh mollarni 390 kun davomida jadal o’strib har bir bosh molning tirik vazni 405 kg dan oshirishga mo’ljallangan. Bunda har 13-14 kunda 7-15 kunlik erkak buzoqlar

keltiriladi va boqiladi. Molning kunlik o’sishi 577-1033 grammni tashkil etadi. 12 ming boshga mo’ljallangan komplekslarda 1 yilda 5400 tonna go’sht etishtirish rejalashtirilgan. Bunda 3-4 oylik buzoqlar qabul qilinadi va 16 oyligida tirik vazni 450 kg bo’lganda go’shtga topshiriladi.

4). CHo’chqa go’shti yetishtirish komplekslari. CHo’chqachilikni tarmoq ichida, ya’ni chuqur ixtisoslashtirish ko’pincha ishlab chiqarish tsikli tugallangan xo’jaliklarda tarqalgan. Ishlab chiqarish tsikli tugallangan cho’chqachilik fermalarida yoki sanoat komplekslarida, ya’ni ayni vaqtda cho’chqa bolalari yetishtirish, ularni o’strish bilan shug’ullanilganda, odatda, tarmoq ichida ixtisoslashtirish tsex printsipida amalga oshiriladi. Bunday cho’chqachilik xo’jaliklarda 2 ta maxsus bo’lim – reproduktor va bo’rdoqichilik bo’limlari tashkil etiladi. Reproduktor bo’limi o’z navbatida quyidagilarga, ya’ni qochirish va

ona cho'chqalarning bo'g'ozligi aniqlanadigan; tuqqan va emizadigan cho'chqalar; onasidan ajratilgan cho'chqa bolalari tsexlariga bo'linadi. Bo'rdoqichilik bo'limi aslida birgina ishlab chiqarish tsexdan iborat. Har bir tsex uchun o'ziga xos texnologiya operatsiyasi ishlab chiqiladi, ammo ularning hammasi cho'chqa go'shti yetishtirishning umumiy bitta texnologik liniyasini tashkil etadi. 12, 24, 54, 108 ming boshga mo'ljallangan cho'chqachilik kompleksi qurish mumkin. Barcha cho'chqachilik komplekslari yil davomida uzluksiz mahsulot etishtirishni ta'minlaydigan umumiy texnologiya sxemasida ishlaydi.

Ularning hammasi cho'chqalarning fiziologik holatiga (qochirish davri, bo'g'ozlik davri, emizish davri), yoshi va nima maqsadda boqilayotganligiga (onasidan ajratiladigan, bo'rdoqiga boqilayotganligiga) qarab tsex tarkibsida ishlaydi. Kompleksning reproduktor bo'limidagi ona cho'chqalar soni cho'chqa go'shti yetishtirish miqdoriga, bo'rdoqi qilish tezligiga va ona cho'chqalardan foydalanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Yiliga 12000, 24000, 54000 va 108000 bosh cho'chqani bo'rdoqiga boqishga mo'ljallangan komplekslarda yuqoridagiga muvofiq 600, 1200, 2700 va 5300 ona cho'chqa bo'lishi zarur. Ishlab chiqarish tsikli tugallanmagan cho'chqachilik komplekslari va korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlari sanoat texnologiyasi printsiplariga asoslanadi. Cho'chqa go'shti yetishtirish sanoat texnologiyasining printsiplari quyidagilardir: tarmoqni tor doirada ixtisoslashtirish va cho'chqalarni bir korxonalarda kontsentratsiyalash; yil davomida bir xil miqdorda mahsulot etishtirish, ma'lum davr oralig'ida bir xil miqdorda go'shtga topshirib turish; cho'chqalarni jinsiga, bino ichida esa yoshiga qarab tanlash va ayrim sektsiyalarda boshqa cho'chqalardan alohida joylashtirilishi; ishlab chiqarishni tsex asosida tashkil etish va xizmatchilarni tor doirada ixtisoslashtirish; yirik davlat zavodlarida tayyorlangan omixta yem bilan, xo'jaliklararo korxonalarda esa o'zida yetishtirilgan yem-xashak bilan, ularga oqsil, vitaminlar va mineral qo'shimchalar aralashtirib boqish; barcha yoshdag'i va jinsdagi cho'chqalarni haydamay boqish; cho'chqa bolalarini kunlik yoshida onasidan ajratish, ona cho'chqalardan jadal foydalanish va

ularning har biridan bir yilda 2,2 marta bola olish; asosiy podani to'ldirish uchun mahsuldar duragay cho'chqalardan foydalanish; duragay cho'chqalarni jadal o'stirish va bo'rdoqilash; ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish.

5). Ixtisoslashtirilgan fermalar. Bunday fermalar ko'pincha xo'jaliklardagi mavjud chorvachilik binolari va inshootlari asosida ishlab chiqarish jarayonlarini har tomonlama mexanizatsiyalashtirishni hisobga olgan holda tashkil etiladi.

CHorvachilik fermalarini qurishda va ixtisoslashtirilgan fermalarni qayta qurishda hududni rejashtirish muhim ahamiyatga ega. Kompleksning asosiy va yordamchi binolari, yem-xashak saqlanadigan va mollarga berishga tayyorlanadigan tsexlar yagona texnologiya sxemasi bilan bog'langan bo'lib, mollarning oziqqa bo'lган ehtiyojini to'la qondira oladigan miqdorda ozuqabop ekinlar ekiladigan yerlar va sug'oriladigan madaniy yaylovlar ajratilishi zarur. CHorvachilik mahsulotlari etishtiriladigan komplekslarda sanoat texnologiyasida quyidagilar ko'zda tutiladi.

1. Mexanizatsiya vositalaridan to'liq foydalanish va xodimlar ishini to'g'ri tashkil etish imkonini beradigan, texnologiya liniyasida bir-biri bilan bog'langan maxsus binolar qurish.
2. Mollarni asrash va boqishni me'yor asosida to'g'ri tashkil etish uchun ularning mahsulorligi va yoshiga qarab hamda fiziologik holatini hisobga olib guruhlarga ajratish.
3. Mollarni sifatli har xil yem-xashak bilan zarur miqdorda ta'minlash, to'yimli ratsionlar asosida boqish va yem-xashaklarni mexanizmlar bilan tarqatish natijasida mollarni mahsulorligidan samarali foydalanish.
4. O'zining genetik xususiyatiga ko'ra tegishli mahsulorlik talablariga javob beradigan mollarning zotlari va duragaylaridan samarali foydalanish. Urchitish va seleksiya sistemasi bir xil tipdagi sanoat texnologiyasiga juda moslashgan mollarni ishlab chiqarishga qaratilishi lozim. Kompleks va ixtisoslashtirilgan fermalarda ko'p mahsulot yetishtirishni yagona, mukammal texnologiya asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Texnologiya deb biror mahsulotni bir necha slublar va qoidalari asosida ishlab chiqarishga aytildi. Texnologik jarayon

deb, mahsulotni biri ketidan ikkinchisi tayyorlanib, xom ashyni tayyor mahsulotga aylantirish usullariga aytildi. Texnologik jarayonlarning ketma-ket almashinish qonunining ta'siri natijasida xom ashyoning dastlabki ko'rnishi yoki sifati o'zgaradi.

Texnologik jarayonning o'zi ayrim qo'shimcha vazifalarni bajarish uchun bir qancha ketma-ket keladigan operatsiyalarga bo'linadi. SHunday qilib, texnologiya ishlab chiqarish jarayonlari va operatsiyalarining xom ashyni oldindan mahsulotga aylantirish uchun zarur bo'lган sistemadan iborat bo'ladi.

CHorvachilikda texnologiya deganda, ishlab chiqarish jarayonlari kompleksining ta'sirida yem-xashak chorva mollar yordamida oziq-ovqat mahsulotiga va yengil sanoat uchun esa xomashyoga aylanishi tushuniladi. SHu bilan birga chorva mollari faqat ishlab chiqarish vositasi bo'lmay, balki ish predmeti vazifasini ham bajaradi. Masalan, ular go'sht, sut yetishtirishda asosiy manba hisoblanadi. CHorva mollari sanoatda ishlataladigan ishlab chiqarish vositalari va mehnat buyumlaridan o'zining qayta ishlab chiqarish va takomillashtirish qobiliyati bilan farq qiladi. SHunga ko'ra, chorvachilik texnologiyasini mumkin qadar ko'proq arzon va yuqori sifatli mahsulot olishga qaratilgan mollarni ko'paytirish, oziqlantirish va asrash kabi ishlab chiqarish jarayonlari hamda operatsiyalarining majmuasi deyish mumkin. Bundan tashqari chorvachilik texnologiyasi ixtisoslashgan binolar qurish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish hamda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish jarayonlarini o'z ichiga oladi. SHunday qilib, texnologiya tushunchasi mahsulot ishlab chiqarishning hamma tomonlarini butunlay o'z ichiga oladi.

3. Xo'jaliklarda yem-xashak bazasini tashkil etish va mollarni oziqlantirish xususiyatlari. Xo'jaliklarning muvaffaqiyatli ishlashlari uchun mustahkam ozuqa bazasini yaratish tadbirlari va mollarni yaxshi boqishni tashkil etish ko'zda tutiladi. yem-xashaklarni tayyorlash va saqlashda ilg'or texnologiyalar: ya'ni o'tlarni maydalab o'radian texnikalar bilan o'rish va ularni saqlashda shamollatish yordamida quritish, senaj, briquetlar, vitaminli o't uni va yuqori sifatli silos

tayyorlash tashkil etiladi. Sut va qoramol go'shti yetishtirishda shirali ozuqalar ratsion tarkibsini 50 % ni tashkil etsa, cho'chqa go'shti, parranda go'shti va tuxum etishtirishda asosan kuchli omixta ozuqalar tashkil etishi lozim. Mustahkam ozuqa bazasini tashkil etishda har xil turdag'i mollarning bir yillik oziqqa bo'lgan ehtiyoji ratsionning tarkibiga qarab hisoblanadi. CHorvachilikni jadal ravishda rivojlantirish uchun ko'proq hosil beradigan o'tloq va yaylovlarini barpo etish, madaniy yaylovlar tashkil etish, sug'oriladigan yerlarda ozuqabop ekinlar maydonini kengaytirish juda ham muhimdir. CHorvachilikni kontsentrat ozuqalar bilan ta'minlash uchun makkajo'xori, arpa, suli donlarini va dukkakli ekinlar hosildorligini oshirish ko'zda tutilgan. Mollarning turi, yoshi va mahsuldorligiga qarab tuzilgan maxsus retsept asosida omixta yemlar ishlab chiqarish kengaytiriladi. Davlat zavodlarida omixta yemlar ishlab chiqarish bilan birga fermer xo'jaliklarida shu xo'jalikning doni sanoatda chiqarilayotgan oqsil-vitaminli qo'shimchalardan ozuqa aralashmasini tayyorlashni tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Parrandachilik fabrikalari, cho'chqa go'shti, qoramol go'shti va sut etishtirishga mo'ljallangan komplekslarning vitaminli preparatlarga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish maqsadida Respublikamizda sintetik vitaminlar ishlab chiqarish tashkil qilinib, ular kombikorm ishlab chiqaradigan zavodlarda omixta yemlarga qo'shib beriladi. Buzoq va cho'chqa bolalarini o'stirishda ularni sut emadigan davrida ozuqalarning yaxshi bo'lishiga alohida ahamiyat berish kerak. Ular o'z onalarini sutini emishga va sutga bo'lgan talabini qondirish ularni o'sish va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir fermer xo'jaligida ozuqa bazasini mustahkamlash uchun mollarni yem-xashakka bo'lgan ehtiyojini ilmiy jihatdan asoslangan holda aniqlash zarur hisoblanadi. Sutchilikni rivojlantirishda ozuqabop ekinlar ekiladigan maydonda hosildorlikni oshirish, madaniy yaylovlarini ko'paytirish asosiy vazifa hisoblanadi. YOz davrida har bir gektar madaniy yaylovlardan 400-500 ts ko'kat ozuqalar olinadi. Bu esa 3-4 ta sigirni boqishga yetadi. SHunda mollarning mahsuldorligi 15 % dan 25 % gacha, yosh mollarning o'sishi esa 25-30 % gacha ortishi aniqlangan. Bundan tashqari oraliq ekinlarni

ekish va hosildorlikni oshirib mollar mahsuldorligini oshirish mumkin. Senaj va silos bostirish texnologiyasiga alohida e'tibor berish talab etiladi. CHunki senaj va silos sifatli tayyorlansa qishda ham yozdagidek sigirlardan yuqori miqdorda sut olish mumkin va go'shtchilik xo'jaliklarida mollarni kunlik o'sishini yuqori darajada bo'lishi ta'minlanadi. Yirik fermalarda va sutchilik komplekslarida sigirlar yem-xashak klasslari bo'yicha alohida-alohida boqiladi. Bu yerda sigirlar tirik vazni, kundalik mahsuldorligi, sutining tarkibidagi yog' miqdori va boshqa ko'rsatkichlariga qarab guruhlarga ajratiladi. YA'ni sog'in sigirlar, sutdan chiqqan sigirlar, yangi tuqqan sigirlar guruhi. Sog'in sigirlarni oziqlantirish xususiyati mahsuldorligiga asoslangan. Agarda ular bog'lab boqilsa yem-xashak ozuqa tarqatgich transportida yoki ozuqa transportyorida beriladi. Kontsentrat ozuqalarini sog'ish maydonidagi sog'ish paytida oxurlardan yeidi. Sog'in sigirlar 28-30 boshdan qilib guruhlanadi. Bunda bir kunda 5 kg gacha sut beradigan, 6-10 kg gacha, 11-15 kg gacha, 16-20 kg gacha va 20 kg dan ko'p sut beradigan sigirlarga ajratiladi. Pichan bir kunda 1 marta, shirali ozuqalar esa 2 marta beriladi (har bir boshga 35-38 kg dan). Dag'al va shirali ozuqalar sigirlar guruhiga qarab normallashtiriladi. Kontsentrat ozuqalar esa sigirlarning mahsuldorligiga qarab beriladi.

Mamlakatimizda g'alla yetishtirilganligi uchun sog'in sigirlar ratsionida somondan ham foydalaniladi. Maydalangan somon (4-5 sm) ko'k massaga aralashdirilib (10-15 % miqdorda) siloslanadi. Maydalangan somon (4-5 sm) ildizmevalar va kontsentratlarning bir qismini aralashdirilib beriladi. Bunday aralashmalar kuniga 2 marta beriladi. Butunitifoq chorvachilik ilmiy-tekshirish institutining ilmiy xodimlari sutchilik kompleksi sharoitida sigirlarni briket va granula hamda yem uchun ekiladigan donli o'simliklarni eng to'yimli vaqtida o'rib tayyorlangan senajdan foydalanib boqish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

**Qo'ylarni oziqlantirish ratsioni va ozuqaga bo'lган talabi.** 50 kg tirik vaznli qo'ylar uchun namunaviy ratsion, 1 kunda bir boshga.

Ko'rsatkichlar	Ozuqa turlari, kg	Ozuqa birligi
Har xil o'tlar pichani	3,2	1,34
Omuxta yemlar	0,4	0,40
Ozuqa birligi		1,74

Qo'yarning ozuqaga bo'lgan talabi ( 750 bosh)

Ozuqa turlari	1 shartli molga kunlik ozuqa sarfi (naturada, kg)	Jami 75 shart li molga, ozuqa sarfi (kg)	180 kunda jami ozuqa sarfi (tonna)	Jami ozuqa birligi (tonna)
Har xil o'tlar pichani	35	2625	472,5	198,5
Omuxta yemlar	4	300	54,0	54,0
Jami ozuqa birligi				252,5

### Qo'ylar uchun yaylovdan foydalanishni tashkil etish.

Qo'ylar uchun yaylovdan foydalanishni tashkil etish uchun 1 gektar yaylov yeri uchun qancha bosh soni to'g'ri klishtini, foydalanish davridagi yaylovning ko'k massasi hosildorligini, qo'yarning ko'k massani yeyiluvchanlik darajasini, yaylov o'ti miqdorini (kg), 1 kunda 1 bosh qo'yning qancha yaylov o'ti yeyishini bilish kerak bo'ladi.

Qo'ylar uchun qancha gektar yaylov yerini aniqlash uchun masalan, yaylov o'ti ko'k massasi hosildorligi 20 tsentner. Bir oy davomida yaylovga bo'lgan talabni aniqlash kerak bo'ladi. YAylovdan foydalanish darjasasi 60%. Mazkur yaylovning 1 gektar ko'k massasining 20 tsentnerli va 60%-li yeyiluvchanligidagi hosildorligi 12 ts ( $20 \times 60 : 100$ ) tashkil etadi. Har bir qo'y kuniga 6 kg dan yaylov o'ti yeyishi mumkin, natijada 750 bosh qo'ylarga kuniga 4500 kg o't va 30 kunda esa 135000 kg yaylov o'ti iste'mol qiladi. SHunday qilib, 750 boshli otarlarga bir oyda yaylov yeridan umumiy 112,5 gektar yer ajratish kerak bo'lar ekan. Foydalilanigan yaylovlardan o'z holatiga kelishi uchun 30-35 kun kerak bo'lshini hisobga olsak jami bir mavsumda 750 boshli otarlar uchun 260 gektar yaylov yeri kerak bo'ladi.

Fevral-mart oylarida qo'ylarni qo'zilatishda har bir bosh ona qo'y uchun 2,5-3,0 ts dag'al xashak, 0,5 ts omuxta yem, 1 ts silos bo'lishi hamda qo'ylar issiq binolar bilan ta'minlanishi lozim.

**ECHKILARNI OZIQLANTIRISH VA ASRASH.** Echkilar juni qirqilgandan keyin may oyidan sentyabrgacha yaylovlarda boqiladi. Sentyabr oyida esa ularni tog' etaklarida va yuqori adir yaylovlarda boqish tavsiya etiladi. Qish faslida, ayniqsa yanvar oyidan 20 martgacha ona va yosh echkilarni dag'al va omuxta yem bilan oziqlantirish muhim hisoblanadi. Bo'g'oz ona echkilarga dekabr oyidan fevral oyigacha kechqurun har bir boshiga 300 g pichan, yanvar-fevral oylaridan aprel oyigacha har kuni 300 g-dan omuxta yem yoki arpa va fevral-mart oylarida har bir boshiga 400 g-dan pichan berish tavsiya etiladi.

Nasldor takalarni qochirish mavsumidan 1-2 oy avval va qochirish mavsumida hamda undan 1 oy keyin to'la qiymatli kuchaytirilgan ratsion asosida oziqlantirish tavsiya etiladi. Qish davrida nasldor takalarni alohida suruvlarda asrash va ularni har bir boshiga 1 sutkada 500 g omuxta yem va 1 kg pichan berish tavsiya etiladi.

Qish davriga har bir bosh echkiga 20 kg-dan omuxta yem, 130 kg dag'al xashak tayyorlash tavsiya etiladi. Qish mavsumi noqulay kelib yaylovlar hosildorligi qoniqarsiz yillarda esa bu ko'rsatkichlar 2 barobar yuqori bo'lishi tavsiya etiladi.

Echkichilikda naslchilik ishi va ularning mahsuldorlik xususiyatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan tanlash va juftlashdan tashkil topishi tavsiya etiladi. Tanlash suruvdagi eng yaxshi echkilarni maqbul tipini yaratish maqsadida o'tkaziladi va qoniqarsiz belgilarga ega echkilar esa ulardan chiqariladi.

Nasl guruhiga tanlanadigan echkilar junining ingichkaligiga, zichliligiga va uzunligiga alohida ahamiyat beriladi hamda ular tirik vazni, tana tuzilishi, konstitutsiyasi, mahsuldorligi, kelib chiqishi va avlodlarini nasl sifati bo'yicha tanlanadi. Nasldor takalar guruhiga yoki takalar onasidan ajratish paytida, ya'ni 4-5 oyligidan boshlab tanlanadi va shu paytda ular tirik vazni, tana tuzilishi va tana qismlarining jun bilan qoplanishi bo'yicha bonitirovka qilinadi.

Echkichilikda “yakkama-yakka” va guruhlab tanlash amalga oshiriladi. Bunda nasldor takaga xo’jalik foydali belgilarini hisobga olgan holda ona echki tanlanib juftlash amalga oshiriladi.

Naslchilik toifasiga ega bo’limgan xo’jaliklarda esa guruhlab juftlashdan, ya’ni bir guruh ona echkilar guruhida yuqori nasl sifatiga ega nasldor takadan juftlashda foydalilanildi.

**Yilqichilik.** Chorvachilikda qish mavsumi o’ta mas’uliyatli davr bo’lib, qishlovdan betalofat, sog’lom yaxshi semizlik darajasida olib chiqish chorvadorlarning oliy maqsadi hisoblanadi. SHu jumladan yilqichilkda ham qish mavsumi mas’uliyatli davrdir.

**Nasldor ayg’irlar.** Bu davrda nasldor ayg’irlar alohida otxonaga joylashtiriladi. Bunda har bir ayg’ir uchun alohida  $16\text{ m}^2$  dan kichik bo’limgan denniklar bo’lishi kerak. Ayg’irlar har kuni tozalab turiladi, tuyoqlari esa har ikki oyda tozalanadi. Ularni tagligi uchun bir kunda 5 kg somon yoki 15 kg yog’och qipig’i solinadi. Denniklardan go’ng har kuni chiqarib turiladi, otxonaning xarorati  $+4^{\circ}\text{S}$  dan tushib ketmasligi kerak. Nasldor ayg’irlar har kuni yayratish maydonchalarida yayratiladi. Faqat qattiq sovuq kunlari yayratish maydonchalariga chiqarilmaydi.

Ayg’irlarda qochirish mavsumiga tayyorgarlik yanvarning oxiri fevral oylaridan boshlanadi va bu davrda ularni oziqlantirish ratsioni kuchaytiriladi. Ratsionning to’ylimliliqi ayg’irlarni tirik vazni, zoti, yoshi va boshqa ko’rsatkichlariga qarab belgilanadi. Ratsion tarkibi har xil bo’lishi otlarni protein, kaltsiy, fosfor, korotin va boshqa to’ymli hamda biologik faol moddalarga bo’lgan talabini to’liq qondirishi kerak. Ratsion har 2-3 haftada o’zgartirilib yangi ozuqalar kiritib boriladi. Ratsiondagagi ozuqalar sifatli bo’lishi talab etiladi.

Qish mavsumi boshlanishidan oldin xo’jaliklardagi hamma ozuqalar ulardagi organik va mineral moddalar bo’yicha taxlil qilinadi. SHunga asosan otlarni to’laqiyatli oziqlantirish tashkil etiladi.

**Biyalar.** Otlarni qochirish mavsumiy bo’lganligi sababli qish mavsumiga biyalar asosan bo’g’oz holida kirib keladi. Qish davrida bo’g’oz biyalarni ajratib

alohida parvarishlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qish davrida biyalarni to'laqiyatli oziqlantirish har xil ozuqalarini tanlab olishga asoslanadi. Sifatli pichan bilan birga ratsionga har xil turdag'i kontsentrat va shirali ozuqalar kiritiladi. Qish davri biyalar bo'g'ozligining ikkinchi yarmiga to'g'ri kelganligi sababli ratsiondag'i kontsentrat miqdori 1-2 kg-ga ko'paytiriladi. Bu davrda ayniqsa kepakdan va arpadan atala, kuniga 2 kg-dan sabzi, o't va go'sht-suyak uni hamda mineral-vitaminli qo'shimchalar berish tavsiya etiladi.

Qish davrida biyalar otxonaga yaqin bo'lgan yaylovlarga olib chiqiladi. Sovuq kunlarda otxonada qoladi va yayratish maydonchalarida yayratiladi.

**Toylar.** Qish mavsumiga o'tish oldidan oktyabr, noyabr oyalarida toylar onalaridan ajratiladi va ular tamg'alanadi. Tamg'alash 2 xil usulda amalga oshiriladi: 1 – kuydirish usuli, 2 – sovuq usulda tamg'alash, sovuq usulda tamg'alash og'riqsiz bo'lishi va aniq ko'rinishi bilan afzal hisoblanadi. Toylarni onasidan ajratish asta-sekinlik bilan emas darxol amalga oshiriladi. Onasidan ajratilgandan so'ng o'sishdan qolmasligi uchun yetarli miqdorda sifatli ozuqalar bilan ta'minlanishi kerak: bunda 3-4 kg maydalangan arpa, 3-5 kg pichan, 0,5 kg kepak va 2 kg-gacha sabzi beriladi.

Onasidan ajratilgan toylar 2-3 kun otxonada saqlanib 2-3 otboqar nazoratida yaylovga olib chiqiladi. Toy larga qari biyalarni qo'shib yaylovga olib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. YAylovda boqish davrida toy larga qo'shimcha ravishda maydalangan sabzi, arpa, kepak va ozroq pichan beriladi. Sovuq tushishi bilan yaylovda boqish qisqarib boradi. Sovuq tushgach otxonada boqilib kunduzi yayratish maydonchasiga chiqariladi yoki 1-2 soat yaylovda aylatirilib kelinadi. Otxonada saqlash sharoitiga o'tilganda erkak toylar va urg'ochi toylar ajratiladi. Toylar onalaridan ajratilgandan boshlab otlarga qo'llaniladigan barcha qoidalar ularga ham qo'llaniladi. Boshlab toylarni arqonlab yurishga o'rgatiladi. Buning uchun yayratish maydonchasiga yoki yaylovga olib chiqishda yuganlanadi. Otxonaga olib kirishda ham arqonlab olib kiriladi. Toy larni tozalashga ham asta-sekin o'rgatib boriladi. Avval silab keyin toyning o'zi yetmaydigan joylari (bo'yni, ko'kragi) qashlanadi va sochiq bilan artib chiqiladi. Zinxor qashlag'ich

ishlatilmaydi. Burnining atroflari nam sochiq bilan artiladi. SHu tariqa qish mavsumi davomida toylar qo'lga o'rgatib boriladi.

Qish davrida toylar 4 marta oziqlantiriladi. Kontsentrat ozuqalar 3 martada bo'lib berilsa, pichan 4 martada, sabzi, lavlagi va boshqa shirali ozuqalar 1-2 martada beriladi. Qish mavsumida ayg'irlar uchun 12-15ts, biyalar uchun 8-10ts, toylar uchun 5-7ts-dan sifatli pichan tayyorlanadi. SHunday qilib qish davrida otlarga yaxshi oziqlantirish, asrash va parvarishlash sharoitlari yaratilsa qishlov betalofat o'tadi.

**Aholi xonadonlarida tovuq boqish bo'yicha tavsiyalar.** Mamlakatimiz tibbiyot mutaxassislarining xulosalariga ko'ra, kishi sog'lom bo'lishi uchun bir yilda o'rtacha 9,648 kilogramm parranda go'shti va 121 dona tuxum iste'mol qilishi zarur. Aslida parranda go'shti va tuxumi parhez mahsulotlari hisoblanib, inson organizmi uchun juda foydalidir.

**Tovuq zotlari va krosslarini tanlash.** Tarmoqning rivojlanishida tabiiyki, parrandalar naslining alohida o'rni bor. Jahonda tuxum yo'nalishidagi parrandalarning hozirgi kunda zamонави krosslaridan "Lomann" (Germaniya), "Dekalp", "Xayseks" (Gollandiya), "Xay-Layn" (AQSH) va "Rodonit-3" (Rossiya) zotlari ma'lum. YUrtimizda ham ulardan unumli foydalanilmoqda. Masalan, 1992 yilda Germaniyadan "Lomann" zotlari keltirilgan bo'lib, hozirgi kunda mamlakatimiz bozorlaridagi tuxumlarning 70 foizi uning ulushiga to'g'ri keladi. Ular jigarrang, oq va och kulrang bo'lib, asosan Samarqand viloyatidagi "Og'alik – Lomann parranda" qo'shma korxonasida yetishtirilgan tovuqlardan olinyapti. Ushbu zotli parrandalardan uy sharoitida bir yilda 270 dona, sanoat usulida esa 330 donagacha tuxum olish mumkin.

Dunyoda go'sht yo'nalishidagi parrandalardan tovuqlarning bir qator nasllaridan foydalaniladi. Ular sirasiga Angliyaning "Ross-308", "Ross-708", Frantsianing "Xabbard F-115", AQSHning "Arbor alykres plyus", "Kobb" zotli tovuqlar kiradi. Mazkur zotli tovuqlar har birining tirik vazni 38-42 kunligida 2,3-2,5 kilogramm tosh bosadi. Bunday paytda so'yilgan jo'jalarning go'shti yumshoq va parhezbop bo'lganligi bois ham odamlar tomonidan sevib xarid qilinadi.

To'yimliligi jihatidan esa o'rdak va g'oz go'shtidan yuqori turadi. Boisi ularda to'yimli proteinlar miqdori ko'proq, yog' miqdori esa kam. Hozir yurtimizdagi parrandachilik xo'jaliklarida ham ana shunday naslli jonivorlar parvarish qilinib, go'shti aholiga sotilmoqda.

Broyler — (inglizcha: broiler, broil) olovda qovurish degan ma'noni bildiradi. Broyler tez yetiladigan go'shtdor jo'ja. Broyler go'shtidan asosan parhez taomlar tayyorlanadi. Broyler go'shti olish uchun jo'ja qisqa muddatda yetarli darajada semirtiriladi. Buning uchun og'ir vaznli va tez yetiladigan Ross-308, "Kobb", "Xabbord F-15" broyler krosslari, "kornish", "oq plimutrok", "Susseks", "nyugempshir" kabi sertuxum va sergo'sht zotli xo'roz va tovuqlarning chatishishidan olingan duragay jo'jalardan foydalaniadi.

Oddiy uy jo'jasি asosan tuxum yo'nalishida bo'ladi. Broyler jo'jalari esa go'sht yo'nalishida boqilib, 38-42 kunda tirik vazni 2,3-2,5 kg. bo'ladi. Bu vaqtda oddiy jo'janing tirik vazni 1,2-1,4 kg. bo'ladi. Go'sht olish uchun yetishtirilgan broyler jo'jalar texnologiya bo'yicha 1-2 kun ichida so'yilishi shart. Aks holda, bu fursat cho'zilib ketsa, ular tirik vaznnini tezda yo'qotadi. SHu bois, broylerlarni boqish vaqt eng ko'pi bilan 5-6 haftani tashkil etadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, parranda go'shti tez hazm bo'lish xususiyatiga ko'ra barcha turdagи chorva mollari go'shtidan ustun turadi. Tarkibi har xil kimyoviy elementlarga boy. 2 oylik jo'ja go'shti tarkibida 20 foizga yakin oqsil, 10-12 foiz yog' bo'ladi. Broyler jo'jasи go'shtining hazm bo'lish koeffitsiyenti 94 – 95 foizni tashkil kiladi. YUrtimizda broyler jo'jalar biologik, ya'ni o'z tarkibida me'yorga asosan ozuqa moddalari, 20 dan ortiq vitaminlar, makro va mikroelementlari mavjud bo'lган vitamin – mineralli premikslari bilan boyitilgan, to'yimli va sifatli omuxta yem bilan oziqlantiriladi. Parrandachilikda parrandaning zoti, yoshi, vazni, mahsulдорligini inobatga olinib to'yimli ozuqalar bilan boqish katta ahamiyatga ega. Buning uchun ozuqa tarkibiga vitaminli – mineral premikslari, aminokislotalar, fermentlar, probiotiklar va boshqalar ozuqa qo'shimchalari talab etilgan meyorlarda qo'shiladi.

Hozirgi kunda ozuqalarning sifatini va tarkibini ekspress usulda aniqlash uchun laboratoriya anjomlari mavjud. “Agalik – Lomann parranda” qo’shma korxonasida 1996 yildan beri Germaniyaning “Meller” texnologik anjomlaridan foydalanimoqda. Hozirgi vaqtida Ukrainianing “TEXNA”, Germaniyaning “Xelmann” va “Salmet” kompaniyalarining texnologik anjomlari sanoat parrandachiligining zamonaviy talablariga to’liq javob beradi. Turkiya, Eron, Xitoy davlatlarida ishlab chiqilgan parrandachilik texnologik anjomlariga ham parrandachilar tomonidan talablar mavjud. Buxoro viloyatida Ozarbaydjon davlati bilan hamkorlikda parrandalarga ozuqa tayyorlash zavodi, Qibrayda parrandalarga premikslar tayyorlash minizavodlari faoliyat ko’rsatmoqda. Toshkent viloyatidagi “Ishonch – Nadejda” fermer xo’jaligi va Samarqand viloyatidagi “Agalik – Loman parranda” qo’shma korxonasi Rossiyaning Pyatigorsk shaxridan yana 3 tadan komplekt keltirilgan zamonaviy inkubatorlar faoliyat ko’rsatib turibdi.

**Kasalliklar oldini olish va ularga qarshi kurashish.** Parranda yuqumli kasalliklarini oldini olish maqsadida vaktsina va antibiotiklar qo’llaniladi. O’zbekiston sharoitida xavfli xisoblangan yuqumli kasalliklardan Psevdochuma (Nyukasl kasalligi), Infektsion bronxit, Infektsion laringotraxeit, Marek va Gamboro kasalliklari, CHechak (ospa), Mikoplazmoz va Salmonellyozlarga qarshi profilaktik ishlar doimiy ravishda olib boriladi.

### **3.2. “Istiqlol” fermer xo’jaligidagi mahsulot ishlab chiqarishni ko’paytirish yo’llari**

Andijon viloyatida chorvachilikni rivojlantirish asosan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo’jaliklarida chorva mollari bosh sonini ko’paytirish maqsadida qoramol sotib olish uchun mikrokreditlar ajratish, turli tashkilotlar qoshida chorvachilik tarmoqlari bo’yicha yordamchi xo’jaliklar tashkil etish hamda chorvachilikda naslchilik ishini yaxshilash, chet eldan irsiy salohiyati yuqori naslli mollarni olib kelish, sigirlar va tanalarni sun’iy urug’lantirishni qamrab olish darajasini kengaytirish, zooveterinariya servis xizmatlarini yanada yaxshilash maqsadida zooveterinariya punktlarining sonini ko’paytirish va faoliyatini kuchaytirish orqali amalga oshirilmoqda. SHuningdek sohani rivojlantirishda ozuqa bazasini mustahkamlash uchun mavjud ozuqa ekin maydonlaridan unumli foydalanish, ozuqabop ekinlar hosildorligini oshirish va urug’chilagini tashkil etish hamda aholi va fermer xo’jaliklariga omuxta yem, shrot va sheluxa mahsulotlarini va dag’al, shirali ozuqalarni tashkil etilgan maxsus shaxobchalar orqali yetkazib berish va bu shaxobchalar faoliyatini yaxshilab borish sohani rivojlantirishda ustuvor vazifalar bo’lib turibdi.

**Naslchilik ishi.** Keyingi yillarda chovachilikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida mollar bosh soni va mahsulot ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o’sib borishiga erishilmoqda. Andijon viloyatidagi barcha toifadagi xo’jalikdagi xo’jaliklarda 2015 yil 01.07 holatiga 952,9 ming bosh qoramol, 335,2 ming bosh sigir, 1325,8 ming bosh qo’y va echki, 6498 bosh otar, 6034,0 ming parranda mavjud. Viloyatdagi birgina fermer xo’jaliklarida sog’ib olingan sut miqdori joriy yilning 1 iyul holatiga 9586 tonnani tashkil etib, o’tgan 2014 yilning shu davriga nisbatan 105%-ga ko’p bo’ldi. Hozirgi kunda Andijon viloyatida qoramolchilik bo’yicha 39 ta naslchilik fermer xo’jaliklari bo’lib, ularda 7857 bosh qoramol, shu jumladan 2595 bosh sigir mavjud. Bu ma’lumotlar naslchilik fermer xo’jaliklarida qoramollarning nasl negizi yaxshilanib borayotganligidan dalolat beraddi. Ammo chorvachilik yo’nalishidagi fermer xo’jaliklarini yanada

rivojlantirish, ularda qoramol bosh sonini ko'paytirish, ishlab chiqarilayotgan go'sht va sut hajmini boshqa toifadagi xo'jaliklar ulushiga nisbatan oshirish muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Qoramollarning nasl va mahsuldorlik imkoniyatlarini oshirishda viloyatda qora - ola, shvits, va golshtin zotli qoramollar urchitishda asosiy zotlarimiz hisoblanadi. Aksariyat naslchilik toifasidagi xo'jaliklarda sigirlardan bir kunda 30 - 40 kilogrammdan yoki laktatsiya davomida 6-7 ming kgdan sut sog'ib olinmoqda.

Respublikamizda chorvachilik sohasini yanada rivojlantirish uchun shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklaridagi qoramollar bosh sonini ko'paytirish, naslini yaxshilash maqsadida, xorijiy davlatlardan irsiy salohiyati yuqori naslli mollarni olib kelish va ulardan podalarda unumli foydalanish hamda navbatdag'i selektsiya - naslchilik ishlarida nasldor avlodlarini ko'paytirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Andijon viloyatida qoramolchiligidagi 3-ta qoramol zotlari urchitib ko'paytirilmoqda. Bular sut yo'naliqidagi qora-ola, golshtin zotlari, go'sht-sut yo'naliqidagi shvits zotlari hisoblanadi. Qoramolchlik tarmog'ini yanada rivojlantirish va mavjud zotlarni takomillashtirish maqsadida respublikaga xorijiy davlatlardan naslli mollar keltirishda quyidagi zotlarni keltirish tavsiya etiladi:

Sut yo'naliqidagi qoramollar. Qora-ola zoti bosh soni va sigirlarning sut mahsuldorligi bo'yicha Respublikamizda eng yetakchi zot bo'lib hisoblanadi. Bu zotning sigirlari ozuqani yuqori darajada sut bilan qoplash va ular yelini mashinada sog'ish talablariga yaxshi darajada moslashganlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Buqalari jadal o'sish va yaxshi darajadagi go'sht mahsuldorligiga ega. Sug'oriladigan mintaqalarda bu zot qoramollarini urchitish mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va samaradorligini ta'minlaydi.

O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida keng tarqalgan asosiy zotlardan biri bo'lib, qora-ola zotli mollarning O'zbekiston xili shakllangan sigirlarning o'rtacha tirik vazni 480-500 kg, ayrimlari 650-700 kilogrammga yetadi. Sigirlarning o'rtacha sut sog'imi 3500 – 4000 kg. YUqori nasldor sigirlardan laktatsiya davomida o'rtacha 6000- 7000 kg-dan sut sog'ib olinmoqda. Buqachalar

go'shtga jadal boqilganda 15-18 oyligida 450-500 kilogramm vaznga yetadi va so'yim chiqimi 55-57 foizni tashkil qiladi. Bu zot sigirlarining sut mahsuldorligi bo'yicha irsiy imkoniyatlari juda keng. Bu imkoniyatlarni to'liq yuzaga chiqarish esa 55-60% holatda oziqlantirish omiliga bog'liq. Zotning sigirlari ozuqaga juda talabchan, bu esa zotni urchitishda mustahkam ozuqa bazasini yaratish muhimligidan dalolat beradi. Bugungi kunda qora-ola zotli qoramollarning nasl, mahsuldorlik, pushtdorlik va texnologik xususiyatlarini yanada takomillashtirish muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Zotni takomillashtirishda naschilik ishi 2 urchitish usulida olib borilmog'i darkor: sof zotli urchitish va chatishtirish usullarida. CHatishtirish usulida qora-ola zotga qarindosh jahon genofondiga xos golshtin buqalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu zot qoramollari Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarcand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Farg'ona viloyatlari va Qoraqalpog'iston respublikasi urchitish uchun tavsiya etilgan.

Golshtin zotli qoramollar qora-ola zotli mollarga qarindosh hisoblanadi, asosan qora-ola tusda. Bu zot sut mahsuldorlik yo'naliqidagi zot hisoblanib, sigirlarning sut mahsuldorligi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Jumladan, yevropaning sutdor qoramolchiligi rivojlangan yetakchi davlatlarda, xususan Germaniya, Gollandiya, SHvetsiya, Angliya, Frantsiya va boshqa bir qator davlatlarda 1 bosh sigirdan bir yilda 8000 kg-cha, Isroiда 10000 kg-cha sut sog'ib olinmoqda, sutning yog'liligi 3,6-3,8% ni tashkil etadi. Sigirlarning tirik vazni 650-800 kg, buqalarda esa 1200-1300 kgni tashkil etadi, go'sht chiqimi o'rtacha 56-57%-ga barobar. Sigirlarida yelin mutanosib rivojlanib, zamonaviy sog'ish texnologiyasiga yaxshi moslashgan, yelin indeksi 44-46%-cha, sut berish tezligi 2,0-2,5 kg daqiqani tashkil etadi va ular ozuqani yuqori darajada sut bilan qoplash xususiyatiga ega. Ayniqsa bu zot sigirlaridan zamonaviy sutchilik komplekslarida keng foydalanish tavsiya etiladi.

Bu zot qoramollarini urchitish respublikamizning qora-ola zotli qoramollar urchitiladigan viloyatlarda ya'ni Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy,

Namangan, Samarqand, Surxandaryo, Sirdaryo, Toshkent, Farg'ona viloyatlari va Qoraqalpog'iston respublikasi urchitish uchun tavsiya etilgan.

Sut-go'sht yo'nalishidagi qoramollar. SHvits zotli qoramollar Andijon viloyatida urchitish uchun muhim zot bo'lib hisoblanadi. Qoramollarning tusi qo'ng'ir, boshi o'rtacha kattalikda, bo'yni qisqa, tanasi tekis, ko'kragi chuqur va keng, terisi pishiq, yelini hajmdor, va pallalari yaxshi rivojlangan. Sigirlarini vazni 550-650 kg, buqalari 900-1100 kg va undan yuqori. Laktatsiya davomida sut mahsuldorligi 3,8-4,0% yog'dorlikda 4200-5000 kg ni tashkil etadi.

To'la qiymatli oziqlantirish sharoitlarida bu zot sigirlari ham sut mahsuldorligi bo'yicha o'zining irsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish xususiyatlariga ega. Ayniqsa yosh qoramollar to'la qiymatli oziqlantirish tashkil etilganda o'zining yuqori o'sish energiyasini namoyon etadi. Andijon viloyatining yetakchi naslchilik fermer xo'jaliklarida 1 yilda bir bosh sigirdan 4600-5200 kg-cha sut sog'ib olinmoqda. Bu zot qoramollarini mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirish maqsadida Avstriya, Amerika, Germaniya va Rossiya selektsiyasiga mansub sof shvits zotli nasldor buqalar bilan juftlash tavsiya etiladi. Bunday chatishtirishdan olingan turli genotipdagi sigirlarning sut mahsuldorligini o'rghanildi.

Tadqiqotlar Andijon viloyatining naslchilik fermer xo'jaliklarida o'tkazildi. Tadqiqotlar shvits zotli qoramollar podasida Avstriya va Amerika selektsiyasiga mansub buqalardan foydalanish olingan sigirlarning mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirish imkonini berishini ko'rsatdi. Tadqiqotlar Andijon viloyatining Qo'rg'ontepda tumanidagi "Avaz" naslchilik fermer xo'jaligida o'tkazildi. Tadqiqotlar shvits zotli qoramollar podasida Avstriya va Amerika selektsiyasiga mansub buqalardan foydalanish olingan sigirlarning mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirish imkonini berishini ko'rsatdi. Bu podada Avstriya selektsiyasidagi nasldor buqalardan olingan Mariya, YUrmala, Bahor, Boychechak laqabli shvits zotli respublikamizdagi rekordchi sigirlar yetishtirildi va ular laktatsiya davomida 4,10-4,20 yog'lilikda 9600-10462 kg sut mahsuldorligiga ega bo'ldilar. Bunday sermahsul sigirlarning oilalarini yaratish ishlari davom ettirilmoida. Bugungi

kunda chatishtirishda yevropa davlatlari genotipidagi nasldor buqalardan foydalanish yuqori mahsuldor sutbop podalar yaratishda va shvits zotining nasl, mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. CHetdan naslli mol olib kelishda har bir hududning tabiiy-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda rayonlashtirilgan zotlarni urchitishni alohida e'tiborga olish zarur.

To'la qiymatli oziqlantirish asoslari. CHetdan olib kelingan mollar bizning issiq iqlim sharoitimizga moslashuvchanligini oshirishda va mahsuldorligi bo'yicha irsiy imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishda ularni to'la qiymatli oziqlantirish va maqbul asrash sharoitlarini yaratish juda katta ahamiyatga ega. CHunki chetdan keltirilgan qoramollar sifatli va to'yimli ozuqalarga talabchan bo'ladi, nasldor mollar mahsuldorligi 55-60% holatda ularni to'la qiymatli oziqlantirishga bog'liq.

To'la qiymatli oziqlantirish darajasiati past bo'lganda sigirlar organizmidagi almashinuv jarayonlari buziladi, ularning sog'ligi yomonlashadi, pushtdorlik xususiyatlari pasayadi, ulardan nimjon buzoqlar tug'iladi, sut mahsuldorligi bo'yicha irsiy salohiyatini yuzaga chiqarish 65-75%- dan oshmaydi, past sifatli ozuqalardan foydalanish natijasida sut ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlar 20- 25% oshadi. Agarda ozuqa ekinlarini o'rimi jarayonida silos tayyorlash texnologiyasiga buzilishi natijasida silos sifati 1 klassga tushib ketsa, sigirlarning sut mahsuldorligi kuniga 1,5 kg, butun laktatsiya davomida esa 548 kg-ga kamayadi. Silos sifatining pastligi kunlik ozuqa ratsionida umumiy to'yimliligining narxi yuqori bo'lgan kontsentrat ozuqalarning 60% ga-cha sarf bo'lishiga olib keladi. Past sifatli ozuqalarda 1 ozuqa birligida protein miqdori 60-70 g dan oshmaydi, bu esa ozuqa sarfini oshiradi, yuqori mahsuldorlikni ta'minlamaydi, mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi va oxir oqibatda samaradorlik pasayadi. Buni faqatgina silos tayyorlash jarayonining buzilishinigina misol keltirdik. SHuning uchun ozuqalar sifati va to'yimlilagini oshirish, sifatli pichan, silos, senaj, ozuqbop lavlagi tayyorlash mollar mahsuldorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir mutaxasis – chorvadorlar yana bir muhim jihatlarni esdan chiqarmasliklari kerak bo'ladi. 450-500 kg tirik vazndagi sigir bir

kunda o'rtacha 15 kg sut ishlab chiqarishi uchun me'yor bo'yicha 14-15 ozuqa birligi talab qilinadi.

Buzoqlarni sut ichish davrida parvarishlash. Mahsuldor mollar yetkazish avvalo sog'lom va rivojlangan 35-40 kg tirik vaznda buzoq olishdan boshlanadi. Homila ona qornida normal o'sish bo'g'oz sigirlarni dam olish davrida ya'ni bug'ozlikning 8-9 oylarida to'yimli oziqlantirishga bog'liq bo'ladi. Sigirlar bo'g'ozligining so'nggi 60-65 kunida tirik vaznini 50-55 kilogrammga o'sishini ta'minlash kerak, shu davr ichida xomilaning vazni yangi tug'ilgan buzoqlar vaznining 70%-ni tashkil qiladi.

Bug'oz sigirlarni, tug'ishdan oldin toza tug'ruqxonalarda saqlash, tug'dirish, buzoqlarni sog'lom qabul qilib olish hamda birinchi 2-3 kun davomida o'z onalari bilan toza va quruq xonalarda birga saqlab, mumkin qadar sof va kuchli og'iz sutiga to'ydirish kerak. YAngi tug'ilgan buzoqlar 2-3 kun keyin ajratib olinib, maxsus-alohida uycha-profilaktoriyalarda parvarish qilinadi. Uychalarda veterinariya-sanitariya tozalikni ta'minlash, buzoqlarni saqlash va oziqlantirish texnologik usullariga rioya qilinishi talab etiladi. Buzoqlarni oziqlantirish tartibi va me'yori maxsus tasvir asosida amalga oshiriladi.

Profilaktoriya xonachalariga olingan buzoqlarga birinchi o'n kunlikda o'z onalarining og'iz suti beriladi. So'ogra esa fermada yoki podada sog'ib olingan umumiy sutdan iste'mol qilinadi. Boshqa ozuqalarga (mayin yem, beda pichani va hakozo) o'rgatish buzoqlarning 15 kunligidan boshlanadi. Buzoqlarga sut ichish davrida 350 kg qaymog'i olinmagan sut, 400 kg qaymog'i olingan yoki sun'iy sut, 45-50 kg omuxta yem, 50 kg pichan, 30 kg silos va 21 kg senaj berish tavsiya etiladi, shundagina davr oxiriga borib ularning tirik vazni 95-105 kg-ga yetadi. Bu davrda buzoqlarga somon va boshqa dag'al xashklarni berish umuman mumkin emas.

Poda to'ldiruvchi yosh mollarni oziqlantirish. Buzoqlar 3 oyligidan 6 oygacha boshqa xonalarga o'tkaziladi va 10 boshdan guruhlarga bo'linadi. Bu davrdv 135-140 kg-dan omuxta yem, 450 kg ko'k o't, qish paytida shu miqdorda omuxta yem, 180 kg pichan, 120 kg senaj va 620 kg silos beriladi. Bu paytda buzoqlarning

kundalik semirishi 700- 750 grammni tashkil etib davr oxiriga borib, ularni tirik vazni 175-180 kilogrammga yetkazish maqsadga muofiqdir. Buzoqlar 6 oydan 12 oygacha 10-15 tadan guruh qilib bog'lamasdan boqiladi. Bu davrda buzoqlarning har 1 boshiga 4,5-5,0 ozuqa birligida ozuqalar berib boriladi. Bunday boqishda 1 yoshga to'lgan buzoqlarning tirik vazni 285-306 kg-ga yetadi, kunlik 700 g-dan semirishiga erishiladi. 12-18 oylik tanalarning kunlik semirishini 500-550 g-ga, davr oxiriga borib tirik vaznini 360-385 kg-ga yetkazish, buning uchun 6,5-7,5 ozuqa birligida oziqlantirish tavsiya etiladi. Bu guruhda tirik vazni me'yor darajadagi tanalar urug'lantirish uchun tanlab olinadi va ular zotli buqalar urug'i bilan urug'lantiriladi, 2-3 oydan keyin urug'lantirilgan mollar rektal tekshiriladi va bo'g'oz bo'lganlari g'unajinlar guruhiга o'tkaziladi.

G'unajinlarni tug'ishga tayyorlash va birinchi tuqqan sigirlarni sersutligini oshirish tadbirlari. Xorijdan keltirilgan koramollar bilan ishlash jarayonida xujalik mutaxassislari xayvonlar xo'jalikka keltirilgan kundan boshlab, shuningdek, ularni tug'ishga to'g'ri tayyorlash , buning uchun ularning kelgusi laktatsiyasidagi sut mahsulдорлиги va tirik vaznini hisobga olgan holda oziqlantirishni tashkil etish, ularning 5-6 oylik bo'g'ozligidan to tug'ishiga 20-30 kun qolguncha kuniga 2 marta 5 daqiqadan yelinini uqalashni tashkil etish hamda laktatsiyaning birinchi kunidan ularga jiddiy e'tibor qaratishlari talab etiladi. Tuqqandan 9-10 kun o'tgach nazorat molxonasiga o'tkazilib, sersutlikni oshirish bo'yicha tadbirlar qo'llaniladi.

Sersutlikni oshirish – kunlik sut miqdoriga qarab "avans" darajasijdagi oziqlantirish, kunda 3 martaba jadal sog'ish, har 10 kunda nazorat sog'imini o'tkazish, sigirlarni sog'ishga to'g'ri tayyorlash va sog'ish texnikasiga rioya etish bu tadbirning asosiy shartlaridandir. Sigirlarni sersutligini oshirishda ularga to'yimli shirali (lavlagi, makkajo'xori silosi) va dag'al (beda pichani, o't uni), beda senaji, protein, qand moddalariga va kaltsiy, fosforlarga boy bo'lган ozuqalarni berish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Kunlik sutning 3-4 kg oshishiga qarab "avans" ozuqalar miqdori oshirilib boriladi, sigirlar sutini ko'paytirish imkoniyati cho'qqisiga yetgandan so'ng asta sekin kamaytiriladi va "avans" ozuqalar berish to'xtatiladi. Sersut qilish davrida ozuqa ratsionlarini tuzishga alohida e'tibor

beriladi “avans” ozuqalar me’yori omuxta yemlar va xashaki lavlagi hisobidan bajariladi. Masalan, kunlik sut miqdori 25 kg bo’lgan sog’in sigirga omuxta yem ratsiondagi ozuqalar to’ymligining 45-50%, xashaki lavlagi esa 1 kg sog’iladigan sut hisobiga 650-700 gramdan to’g’ri kelishi maqbul. Qishlov davrida sog’in sigirlar ratsionida albatta lavlagi yoki xashaki sabzi bo’lishi shart agarda xo’jalikda bo’lmasa, uning o’rniga tritikali, arpa, suli donidan undirilgan maysalardan foydalanib, kunlik cutiga qarab 2,-4,0 kg berish tavsiya etiladi. Sigirlar laktatsiyasining dastlabki 90-100 kuni mobaynida sut mahsuldorligini oshirish, ularning sersut qilish imkoniyatini va mahsuldorligi bo’yicha irsiy salohiyatini yanada yaxshilashda muhim tadbirlardan biri hisoblanadi.

Qoramollarni asrash. Hayvonlar organizmi doimiy ravishda tashqi muhit bilan, avvalo havo harorati bilan uzviy ravishda bog’liqdir. SHuning uchun chorvachilik binolarida qulay mikroiqlim sharoitlarini yaratishning muhim shartlaridan biri hayvonlarning sog’ligini saqlash va mahsuldorligini oshirishdir. Havo harorati qishloq xo’jalik hayvonlar organizmidagi moddalar almashinuviga katta ta’sir ko’rsatadi. Havo harorati qancha past bo’lsa, hayvonlar tana haroratini mo’tadil saqlab turish uchun shuncha ko’proq ozuqa sarflaydi. Harorat, namlik va havo harakati hayvonlarning issiqlik reguliyatsiyasiga, shuningdek ularning mahsuldorligi va ozuqa sarfiga ham katta ta’sir ko’rsatadi. Namlik va havo xarakati harorat ta’sirini kuchaytiradi yoki aksincha zaiflashtiradi. YUqori mahsuldor hayvonlar binodagi harorat, namlik rejimining o’zgarishiga kam mahsuldor hayvonlarga nisbatan ta’sirchanroq bo’ladi.

CHetdan keltirilgan qoramollarda yoz oylari havo haroratining me’yordan oshishi ularda ishtahasi bo’g’ilishiga, ozuqa sarfining pasayishiga, vazni kamayishi va yiliga sut miqdori 200-300 kg-gacha pasayishiga sabab bo’ladi, ba’zi hollarda harorat 40 °S dan oshganda quyosh urib, yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Qish davrda molxonada havo harorati o’rtacha +12 - +14S, buzoqxonada +15 - +20S, yoz oylarida esa +25 - +30S bo’lishi maqsadga muofiq. SHuning uchun yoz oylari mollarni cho’miltirish, molxonalarda shamollatish uskunalaridan

foydalanim, jazirama issiq paytlari mollarni usti ochiq maydonlarda saqlamaslik tavsiya etiladi.

Sutdor qoramolchilikda ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etib, qabul qilingan kun tartibiga qat'iy rioya qilib, yuqoridagi zootexnikaviy tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish, bu chorva mollaridan mahsulot ishlab chiqarishni 20-30% ga oshirish imkonini beradi. SHunday qilib, sohani yanada rivojlantirish xalqimizning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda dolzarb vazifa hisoblanadi. Buning uchun mavjud barcha imkoniyatlardan oqilona foydalanim, ozuqa bazasini mustahkamlash, naslchilik ishini rivojlantirish, chorva mollarini asrash sharoitlarini yaxshilash, chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish bilan birga sifatini oshirish hamda ilmiy asoslangan zamonaviy talablarga javob beradigan usullarini ishlab chiqish, ozuqabop ekinlarning yangi serhosil nav va duragaylarini yaratish, ularning hosildorligini oshirishning ilg'or agrotexnikasini ishlab chiqish, ishlab chiqarishni ilg'orlar tajribasi, fan yangiliklari va yutuqlari bilan ta'minlab borish muhim vazifalar bo'lib hisoblanadi.

Katta yoshli qoramollarni so'qimga boqish. Go'shtga boqishga qariligi bo'yicha yaroqsiz bo'lgan katta yoshdagagi sigirlar va nasldor buqalar go'shtga topshirishdan oldin so'qimga boqiladi. Bu yaroqsiz mollar dag'al, shirali va kontsentrat ozuqalardan ratsional foydalanim so'qimga boqishni tashkil qilish kerak. So'qimga boqish muddati molning semizlik darajasiga bog'liq, bo'lib, ozg'in mollar 3 oy va o'rta semizlikdagi mollar uchun esa 2 oyni tashkil qiladi. Bo'rdoqiga boqish uch bosqichda olib boriladi.

Birinchi bosqich ratsioning asosiy qismini shirali va dag'al ozuqalar (yo'z davrida ko'k o't) tashkil qiladi. Bu ozuqalar molning ishtaxasini yaxshilaydi va organizmda esa yog' moddasining to'planishidan saqlaydi.

Ikkinchi bosqichda mollar biroz semirgan bo'lib dag'al va shirali ozuqalarni oldingidek yaxshi iste'mol qilmaydilar. YUqori darajada kunlik semirtishga erishish uchun hajmdor ozuqar miqdorini biroz kamaytirib kontsentrat ozuqalar ko'paytiriladi. So'ngi bosqich davrida, ya'ni uchinchi bosqichda esa ancha semirgan bo'lib ulardagi yuqori kunlik semirish darajasini saqlab qolish uchun

ratsiondagি ozuqalarga sifatli, mollar sevib ishtaxa bilan iste'mol qiladigan kam hajmga va ko'p energiyaga ega bo'lgan ozuqalardan foylanishimiz kerak. Iloji bo'lsa xo'jaliklarda qoramollarni so'qimga boqishda oziq-ovqat sanoati chiqindilaridan (pivo,vino, konserva(pivo,vino, konserva, non qoldiqlaridan) keng ko'lamma foydalanish zarur. Katta yoshli qoramollarni so'qimga boqishda ham turli oziqlantirish turlari qo'llaniladi. O'zbekiston sharoitida silosli, silosli-kontsentratli, senajli-kontsentratli singari ozuqlantirish turlarini qo'llash mumkin. YOsh qoramollarni va katta yoshli qoramollarni so'qimga boqishda ham yoz va qish oylari bir hil turdagи ozuqalar aralashmasidan, donador yoki briket holdagi to'la qiymatli ozuqa aralashmasidan foydalanish mumkin. Aralashmalarni tayyorlashda uni biologik to'la qiymatliligi oshirish uchun maxsus OVMQlardan foylaniladi.

Go'shtdor va jo'ndor qo'ylarni parvarishlash. Andijon viloyatida mavjud go'shtdor va go'shtdor-jundor qo'ylardan go'sht va yog' mahsuloti bilan birga sanoat uchun muhim xom-ashyo – teri va jun olinadi. Bu mahsuldorlik yo'naliqidagi qo'ylarni urchitishga alohida ahamiyat beriladi. Poda tarkibi quyidagicha bo'lishi tavsiya etiladi: ona qo'ylar 65-70%, nasldor qo'chqorlar 1-2%, qo'zilar 29-34%. Naslchilik xo'jaliklarida ona qo'ylar salmog'i 55-60% bo'lishi tavsiya etiladi. Qo'ychilik fermasida quyidagi binolar bo'lishi taklif etiladi: ona qo'ylarni saqlash binosi, podani to'ldiruvchi qo'zilar binosi, nasldor qo'chqorlar binosi, qo'ylarni sun'iy qochirish punkti, qo'ylarni junini qirqish uchun punkt va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun xona. Qo'ylarni qo'zilatish mavsumiga qarab ularni quyidagi muddatlarda qochirish tavsiya etiladi: ularni qishda (fevral oydan) qo'zilatishda 10 sentyabrdan boshlab, bahorgi qo'zilatishda (mart oyidan) qo'zilatishda 1 oktyabrdan boshlab qochirish tavsiya etiladi. Qochirish mavsumida 1 bosh nasldor qo'chqorga 40-50 bosh sovliqni qochirish rejalashtiriladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **1.O'zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T. O'zbekiston 2003 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining yer Kodeksi. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlari. 1-kitob. – T.: 1999.
- 3..O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni. «Xalq so'zi». 2004 yil 27 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining Davlat yer kadastro to'g'risidagi qonuni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 25-son.
- 5.O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlari. 3-kitob. – T.: 1999

### **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagি PF-3226 sonli farmoni «Qishloqda islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida». Xalq so'zi. 2003 yil 25 mart
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martdagи PF-3188 farmoni “SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” Xalq so'zi. 2006 yil 24 mart.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktyabrdagi PF-3077-son «Fermer xo'jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish choralarini ko'rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha maxsus komissiya tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi.Toshkent-2008y.
- 4 . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi “O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4478 farmoni.Toshkent-2012y.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo'jaligi ishlab

chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlarning bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori.Toshkent-2003 yil 4 sentyabr 383-son.

6 . O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining karori. «SHaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chovachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi karori. Toshkent. 2008 yil 21 apreldagi 281-son.

7 . O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2013 yil 31 yanvardagi “Fermer xo'jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi qarori. Toshkent sh.,2013 yil 31 yanvar, 22-son.

8.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 17.01.2015 y.

### **3 . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. I.A.Karimov «O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari T., O'zbekiston. 1995 yil
2. I.A.Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» T.: O'zbekiston. 1995 yil
3. I.A.Karimov «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T., O'zbekiston, 1998.
4. I.A.Karimov. Barqaror taraqqiyotga erish ustivor vazifa. T O'zbekiston 1998.
5. I.A.Karimov «Dehqonchilik taraqqiyoti – to'kin hayot manbai» T.: O'zbekiston. 1998 yil
6. I.A.Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartarf etishning yo'llari va choralar» T.: O'zbekiston. 2009 yil.

### **4.Sohaga oid me'yoriy xujjatlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagı 54-

sonli qarorida tasdiqlangan «Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom». Toshkent-“Adolat”-1999y.

2. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy xujjatlar to'plami. (1-2 qism). Toshkent 1998 yil.

## **5.Asosiy adabiyotlar**

1. U.N.Nosirov. Qoramolchilik. (derslik). Toshkent, O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2001 y.

2 N.O Mavlanov E.N.Mavlanov. Koramolchilik. (derslik) Toshkent. O'kituvchi. 1984 y.

3. G.A.Samatov. J.YO. YOdgarov Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. (derslik) Toshkent. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2005 y.

4. O'.P.Umrzaqov va b. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.:”Iqtisod-moliya” 2007 y.

5. A.A.Abdug'aniyev, A.Abdug'aniyev. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti (derslik). Toshkent, 2010 y.

6. S.Frunze. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish. (derslik) .– T. 2004 y.

## **6.Qo'shimcha adabiyotlar**

1. M.SHarifxo'jaev, YO.Abdullaev. Menejment. – T.: «Moliya», 2003.

2. B.Salimov va b. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti. – T.:TDIU, 2004

3. R.Xakimov va b. Agrosanoat majmui iqtisodiyoti. – T.:TDIU, 2004

4. O.Olimjonov va b. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. T. «Universitet», 2005.

5. O'zbekistonda chorvachilik. Bugungi xolat, muammolar va taraqqiyot istiqollari. Toshkent. Nasaf. 2010 y.

## **7.Davriy nashrlar,statistik to'plamlar va xisobotlar.**

1. Xo'jaobod tumanidagi «Istiqlol” fermasining 2013-2015 yillardagi biznes rejali, yillik hisobotlari va boshqa ma'lumotlar.

## **8.Internet manbalari.**

1. [www.msu.ru](http://www.msu.ru). – Moskva Davlat Universiteti.Iqtisodiyot fakulteti.
2. [www.rsute.ru](http://www.rsute.ru). - G. Plexanov nomidagi Moskva iqtisodiyot akademiyasi.
3. [www.tsuye.uz](http://www.tsuye.uz).- Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
4. [www.timasad.ru](http://www.timasad.ru).-K.A.Timiryazev nomidagi Moskva davlat qishloq xo'jali gi akademiyasi, iqtisodiyot fakulteti.
5. [www.pravo.uz](http://www.pravo.uz). O'zbekiston respublikasi qonunchilik bazasi.
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – O'zbekiston OO'MTV qoshidagi elektron kutubxona.
7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) -Qonunlar va me'yoriy xujjatlar milliy bazasi.